



**5-MODUL.**

**MOLIYA: DAVLAT XARIDLARI**

**Darslik**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**5-MODUL.**  
**MOLIYA: DAVLAT XARIDLARI**

**Darslik**

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiysoha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta’lim yo‘nalishi:	5230600	–	Moliya

**Toshkent – 2024**

**UO‘K:658.71(075)**

**KBK:65.415ya7**

**5-Modul. Moliya: Davlat xaridlari. Darslik. “Lesson Press” MCHJ nashriyoti – T.: 2024. 158 b.**

Mazkur darslik oliy ta’lim muassasalari bakalavriat ta’lim yo’nalishlari uchun mo’ljallangan. Darslik o’zichiga davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishning nazariy, ilmiy, xuquqiy jixatlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni olgan bo’lib, xar bir mavzu yuzasidan nazorat savollari, glossariylar berilgan.

Ushbu darslik iqtisodiy oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilar, turli tashkilot, muassasa, korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari uchun zarur material xisoblanib, talabalarning “Molya”, “Davlat xaridi” fanidan olgan bilimlarni mustahkamlash va takrorlashda alohida o’ringa ega bo’ladi.

Учебник предназначен для додипломного образования в высших учебных заведениях. Учебник содержит информацию, отражающую теоретические, научные и правовые аспекты организации и осуществления государственных закупок, а также контрольные вопросы и глоссарии по каждой теме.

Данный учебник считается необходимым материалом для профессоров и преподавателей экономических вузов, высококвалифицированных специалистов различных организаций, учреждений, предприятий и занимает особое место в закреплении и повторении знаний студентов по дисциплинам «Финансы», «Госзакупки».

This textbook is intended for undergraduate education in higher education institutions. The textbook contains information reflecting the theoretical, scientific, and legal aspects of the organization and implementation of public procurement, as well as control questions and glossaries on each topic.

This textbook is considered a necessary material for professors and teachers of economic higher educational institutions, highly qualified specialists of various organizations, institutions, enterprises, and has a special place in strengthening and repeating the knowledge of students in "Finance", "State procurement"

**ISBN:978-9910-747-71-7**

**“Lesson Press”MCHJ,2024**

## **KIRISH**

Mamlakat moliya sohasini rivojlanishida davlat o’z funksiya va vazifalarini amalga oshirishi aloxida ahamiyat kasb etadi, bunda davlat tomonidan davlat byudjeti va nobyudjet mablag’lar xisobiga turli tovar, ish, xizmatlarni xarid qilib boradi. Davlat xaridlari davlat xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi, shundan kelib chiqqan holda davlat xaridlari sohasi uchun malakali mutahassislarni taylorlash muhim hisoblanadi. Davlat xaridlari davlat budgeti, budgetdan tashqari jamg‘armalar, boshqa markazlashgan manbalar, davlat korxonalari va ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korporativ tashkilotlar mablag‘lari hisobidan tovar (ish,xizmat)larni muqobil variant(narx va sifatda)da sotib olishga xizmat qiladi.

Ushbu “5-modul. Moliya: Davlat haridlari” darsligida davlat xaridining mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, davlat xaridini amalga oshirish shakllari, davlat xaridlari jarayoniga doir umumiylablar, davlat xaridlari bo'yicha e'lon va axborotni joylashtirish tartibi, davlat xaridlari tizimida savdolarni amalga oshirish mexanizmlari, savdolar yakunlari bo'yicha shartnomalar tuzish va mablag'larni o'tkazib berish, davlat xaridi tizimini elektronlashtirish, davlat xaridini nazorat tizimi, davlat xaridlarini takomillashtirish yo'nalishlari, davlat xaridlarini amalga oshirishning xorijiy davlatlar tajribalar kabi mavzularga oid nazariy hamda amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

## **1- BOB. DAVLAT XARIDINING MOHIATI VA UNING IJTIMOIY- IQTISODIY AHAMIYATI**

### **1. Davlat xaridining iqtisodiy ahamiyati.**

#### **2. Davlat xaridi sub'ektlari.**

**Tayansh so'zlar:** davlat xaridi - davlat xaridi ob'ekti - davlat xaridining sub'yektlari - davlat buyurtmachilari - tashqi nazorat organlari - davlat va xo'jalik boshqaruv organlari - tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar - davlat xaridining predmeti.

#### **1. Davlat xaridining iqtisodiy ahamiyati.**

Davlat xaridi deganda davlat tomonidan, davlat buyurtmachilarining tovarlar, ish, xizmatlar xarididir. Joriy davrdagi islohotlarning ustivor yo'nalishlaridan bo'lib davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilarning ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmat)larni muqobil variantda sotib olishga erishish xisoblanadi. Davlat haridi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bozordagi tovar, ish, xizmatlarga bo'lган talab va taklifni muvozanatlashuvida davlat tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar alohida o'rın tutadi.

Davlat xaridining predmeti bo'lib, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar hisoblanadi. Tovarlarga - xom-ashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni etkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi. Ishlar deganda – qurilish, ta'mirlash, binoni, inshoat va ob'ektlarni buzish yoki ta'mirlash, bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, guruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, montaj uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari (masalan,

geodeziya va burg’alash bo’yicha ishlar, aero- va sun’iy yo’ldosh orqali sur’atga olish, seysmik tadqiqotlar o’tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ish bahosidan yuqori bo’lmasa) tushuniladi. Xizmatlarga esa – tovar va ishlarga taalluqli bo’lmagan barcha xarid predmeti tushuniladi.

## 2. Davlat xaridi sub’ektlari.

Davlat xaridlarining subyektlari bo’lib davlat buyurtmachilar, xarid komissiyasi, ixtisoslashgan tashkilot, ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori.

Davlat buyurtmachilar deganda quyidagilar tushuniladi:

1) budjet buyurtmachilar:

-davlat organlari va muassasalari;

-budjet tashkilotlari;

-xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo’naltiriladigan budjet mablag’larini oluvchilar;

-davlat maqsadli jamg‘armalari;

-budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar;

2) korporativ buyurtmachilar:

-davlat korxonalari;

-ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo’lgan yuridik shaxslar;

-ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu moddaning 2-bandi ikkinci va uchinchi xatboshilarida ko’rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo’lgan yuridik shaxslar;

-ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu moddaning 2-bandi to’rtinchi xatboshisida ko’rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo’lgan yuridik shaxslar.

Korporativ buyurtmachilar ro’yxati O’zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan yuritiladi va axborot

almashinuvi orqali maxsus axborot portalida shakllantiriladi.

Davlat buyurtmachisi:

-mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashkilotni jalg etgan holda tovarning (ishning, xizmatning) boshlang‘ich narxini belgilash, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

-davlat xaridlarini amalga oshirishda o‘z rasmiy veb-saytiga yoki o‘zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga e’lon joylashtirish;

-xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilaridan eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni o‘tkazishda davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) tuzish va (yoki) shartnoma majburiyatlarini bajarish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydigan zakalat yoki bank kafolatini kiritishni talab qilish;

xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tatbiq etiladigan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilar takliflarining amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to‘g‘risidagi taklif bilan ularga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat buyurtmachisi qonunchilikka va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi:

- davlat xaridlarini rejorashtirishi;

- ushbu Qonunga muvofiq xarid qilish tartib-taomili turini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi;

- qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishi;

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirishi;

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) va davlat xaridlarining tartib-taomillari bilan bog‘liq so‘rovlari bo‘yicha ularga qonunchilikka muvofiq tushuntirishlar berishi;

- xarid qilish tartib-taomillarining g‘olib deb topilgan ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzishi, shuningdek ularning ijro etilishini ta’minlashi;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda affillanganlik to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi;

- bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdirdagina maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga va ommaviy axborot vositalariga joylashtirishi shart.

Korporativ buyurtmachilar o‘zi amalga oshirgan davlat xaridlari to‘g‘risida vakolatli organga har chorakda axborot taqdim etadi.

Davlat buyurtmachisining zimmasida qonunchilikka va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Davlat buyurtmachisining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan majburiyatları va vazifalari davlat buyurtmachisining rahbariyati, xarid komissiyalari va xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan davlat buyurtmachisining tarkibiy bo‘linmalari yoki alohida xodimlari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o‘tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisi huzurida faoliyat ko'rsatadigan, davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir.

Xarid komissiyasi toq sonli a'zolardan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinnbosari bajaradi.

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lмаган mas'ул kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolari hozirligida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Vakolatli organ vakilini boshqa davlat buyurtmachisining xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xarid komissiyasi to‘g‘ri shakllantirilishi uchun davlat buyurtmachisi mas’uldir.

Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a’zolari umumiyligi sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo‘ladi.

Xarid komissiyasi a’zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo‘lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a’zosi bu masala ko‘rib chiqilgan majlisda o‘zini o‘zi rad etishi va mazkur masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a’zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, uning o‘zi esa o‘zini o‘zi rad etmagan bo‘lsa, bunday a’zoning mazkur masala bo‘yicha ovoz berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo‘yicha ovoz bergen mazkur komissiya a’zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, bunday a’zoning ovozi mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xarid qilish hujjatlarini kelishadi;
- takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;
- takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;
- takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;
- zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minlash shaklini belgilaydi;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni

amalga oshiradi;

- dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;
- zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;
- zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;
- xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

Ixtisoslashgan tashkilot davlat buyurtmachisining topshirig'iga ko'ra tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil etish bo'yicha shartnomaga asosan pulli asosda xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishni tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilishga haqli.

Shartnomaning muhim shartlarini belgilash va shartnomani imzolash faqat davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan tashkilotlar davlat xaridlarini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak:

- yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishi;
- ixtisoslashgan tashkilotning muassislari orasida davlat xaridining boshqa subyektlari bo‘lmasligi;
- davlat xaridlarini o‘tkazishni tashkil etish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan bir nafardan kam bo‘lmagan xodimga ega bo‘lishi;
- maxsus axborot portaliga ulanish imkonini ta’minlovchi dasturiytexnik vositalarga ega bo‘lishi.

Ixtisoslashgan tashkilot davlat buyurtmachisidan xarid tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur axborotni olish huquqiga ega, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ixtisoslashgan tashkilot:

- davlat buyurtmachisining talabiga binoan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etishning istalgan bosqichida amalgaloshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot taqdim etishi;
- davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga rioya etgan holda xizmatlar ko‘rsatishi;
- davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organning, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning so‘roviga ko‘ra ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi;
- xarid qilish tartib-taomillarining insofsiz ishtirokchilarining davlat xaridlarida ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rishi;
- har bir davlat xaridi uchun xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsni belgilashi;
- xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari asosida tashkil etishi shart.
- Ixtisoslashgan tashkilot quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi:
- tovarning (ishning, xizmatning) boshlang‘ich narxini aniqlaydi,

bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

- marketing tadqiqotlarini va boshqa tadqiqotlarni o‘tkazadi;
- reklama ishlarini tashkil etadi;

- xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomalar, e’lonlar matnlarini, xarid qilish hujatlarini rasmiylashtiradi;

- xarid qilish tartib-taomillari talablari, shartlari va ular bo‘yicha tushuntirishlar matnlarini qonunchilikka muvofiq tayyorlaydi;

- davlat buyurtmachisiga xarid qilish tartib-taomilining turini taklif

qiladi;

- davlat buyurtmachisining yozma murojaatiga ko‘ra davlat

xaridlarining tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi axborotni davlat xaridlarining elektron tizimiga va maxsus axborot portaliga qonunchilikka muvofiq joylashtiradi;

- g‘oliblar bilan imzolanadigan shartnomalar loyihamalarini tayyorlaydi;

- davlat buyurtmachisining yozma topshirig‘iga ko‘ra bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari mavjudligi tasdiqlangan taqdirda, joylashtiradi;

- davlat buyurtmachisining yozma topshirig‘iga ko‘ra xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga o‘z takliflarining amal qilish muddatini muayyan muddatga uzaytirish to‘g‘risidagi taklif bilan murojaat qiladi;

- xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini rasmiylashtiradi;

- xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish yakunlari bo‘yicha hisobotlar tuzadi;

- xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish uchun taklifnomalar yuborilishini ta’minlaydi.

Ixtisoslashgan tashkilot yoki uning affillangan shaxsi o‘zi tashkilotchi bo‘lgan xarid qilish tartib-taomilida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin emas.

Davlat buyurtmachisi ixtisoslashgan tashkilotni ushbu moddada belgilangan talablarga muvofiq jalb etish uchun javobgardir.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida maslahat va (yoki) takliflarni ko‘rib chiqish, baholash hamda taqqoslash bo‘yicha xulosa olish uchun ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari tegishli shartnomaga asosida jalb etilishi, shu jumladan tekin asosda jalb etilishi mumkin.

Ekspert maslahat xizmatlarini ko‘rsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bog‘liq sohada maxsus bilimlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir.

Ekspert tashkiloti xodimlari maslahat xizmatlarini ko‘rsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bog‘liq sohada maxsus bilimlarga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.

Ekspert, ekspert tashkiloti xizmatlarni davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etgan holda ko‘rsatishi shart.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

Ishtirokchi:

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

- davlat buyurtmachisiga yoki ushbu buyurtmachi tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni o‘tkazish talablari va shartlari bo‘yicha so‘rovlari berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;

- xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

- Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;
- qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

Ishtirokchi:

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;
- xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchligi uchun javobgar bo‘lishi;
- asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;
- g‘olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi elektron do‘kon, auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender bo‘yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas.

Davlat xaridlarining ijrochisi (bundan buyon matnda ijrochi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib deb topilgan va o‘zi bilan davlat xaridlari to‘g‘risida shartnoma tuzilgan ishtirokchidir.

Ijrochi:

- davlat buyurtmachisi bilan tuzilgan shartnomani bajarish jarayonida tushuntirishlar olish uchun unga murojaat qilish;
- yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat) uchun haq olish;
- shartnoma shartlariga muvofiq va (yoki) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Ijrochi:

- qonunchilik talablariga rioya etishi;
- shartnomani uning shartlariga muvofiq bajarishi;
- asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;
  - shartnomani bajarish jarayonida davlat buyurtmachisiga yoki vakolatli davlat organiga uning so‘rovi bo‘yicha tushuntirishlar va axborot berishi shart.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori davlat xaridlaring subyektlariga davlat xaridlaring elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan, davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori:

- davlat xaridlari elektron tizimining uzlusiz ishlashini, unga joylashtirilgan axborotning but saqlanishini va bir butunligini, o‘z elektron resursining tegishli davlat boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlari va axborot tizimlari hamda maxsus axborot portalini bilan belgilangan tartibda uyg‘un ishlashini ta’minlaydi;
- qonunchilikka muvofiq axborotning elektron shaklda saqlanishini, shu jumladan elektron hujjatlar va elektron xabarlarning saqlanishini ta’minalash, shuningdek xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishda davlat xaridlaring elektron tizimini to‘g‘ri ishlashi uchun javobgar bo‘ladi;
- o‘z elektron resursini O‘zbekiston Respublikasi hududidagi apparat-texnika vositalariga joylashtiradi;
- vakolatli organ, davlat xaridlari jarayonida ishtirok etayotgan boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

- Davlat xaridlari elektron tizimining operatori:

- ishtirokchi, ijrochi sifatida, shuningdek o‘zining elektron tizimida davlat buyurtmachisi sifatida davlat xaridlarda ishtirok etishga,

ularning affillangan shaxsi bo‘lishga;

- davlat xaridlarini amalga oshirish va narx belgilash jarayoniga aralashishga, kontragentlarni tanlashda va shartnomalar tuzishda davlat xaridlari subyektlarining erkinligini cheklashga, shuningdek davlat xaridlari subyektlarining huquqlarini boshqacha tarzda cheklashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- uzatiladigan, olinadigan va saqlanadigan elektron hujjatlar hamda elektron xabarlarining ishonchlilagini, shuningdek agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ularning qonunchilikka muvofiqligini nazorat qilishga yoki tekshirishga;

- davlat xaridlari subyektlari tomonidan joylashtiriladigan elektron hujjatlar va elektron xabarlarining mazmunini o‘zgartirishga haqli emas.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori davlat xaridlari subyektlarining ushbu operatorga beriladigan elektron hujjatlari va elektron xabarlarining, shu jumladan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladigan axborotning mazmuni bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Davlat xaridlari deb nimaga aytildi?
2. Davlat xaridi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir etadi?
3. Davlat xaridining predmeti nima?
4. Davlat xaridining sub’ektlari kimlar xisoblanadi?
5. Byudjet buyurtmachisining korporativ buyurtmachilardan farqi qanday?

## **2- BOB. DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING XUQUQIY ASOSLARI**

- 1. O’zbekiston Respublikasida davlat xaridini amalga oshirishning xuquqiy asoslari.**
- 2. Davlat xaridlarini tartibga solishning xalqaro xuquqiy asoslari.**

**Tayanch so’z va iboralar:** davlat xaridini tartibga solish - milliy qonunchilik - davlat xaridini tartibga soluvchi xujjatlar - xalqaro qonunchilik  
- Yunsitral qonuni.

### **1.O’zbekiston Respublikasida davlat xaridini amalga oshirishning xuquqiy asoslari.**

Mamlakatimizda davlat xaridlarini tartibga solishga oid bir qator qonun-xujjatlar mavjud. Xususan, 2021 yil 22 aprelda O’zbekiston Respublikasining O’RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonuni qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonunning amal qilishi:

- O’zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturida va boshqa davlat dasturlarida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan loyihalarni ro‘yobga chiqarish chog‘ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

- davlat buyurtmachilarining xo‘jalik faoliyatini yuritish chog‘ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

- O’zbekiston Respublikasining budget tizimi budgetlarining,

shuningdek budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga;

- agar donor mamlakatlarning, xalqaro tashkilotlarning, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlarining tartib-taomillarida yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar doirasida taqdim etiladigan chet el grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari hamda O‘zbekiston Respublikasiga beriladigan chet el kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga. Bunda donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlar tomonidan, belgilangan tartib- taomillarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib-taomillardan qat‘i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi;

- agar moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordamini taqdim etish hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtirish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordami hisobidan hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etiladi. Bunda moliyaviy, gumanitar yoki xayriya ko‘makni hamda boshqa beg‘araz qaytarilmaydigan moliyalashtirishni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib-taomillardan qat‘i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Davlat tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa

qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartibni saqlash uchun davlat xaridlari, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarisaylovlariga,

O'zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish uchun davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Mazkur Qonunning 5-moddasiga ko'ra davlat xaridlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik;
- asoslanganlik;
- moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- raqobat va xolislik;
- mutanosiblik;
- davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;
- korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi kerak.

Davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot mas'ul shaxslarining kasbiy mahorati tegishli bo'linmalar xodimlariga nisbatan soha bo'yicha ma'lumoti bo'lishi, malakasini muntazam ravishda oshirishi, bosqichma-bosqich amaliy tajribaga ega bo'lib borishi va kasbiy faoliyati to'g'risidagi talablarni belgilash yo'li bilan ta'minlanadi.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxsni belgilashi shart.

Kasbiy mahoratga ega bo'lish maqsadida xarid qilish tartib-

taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsning malakasini muntazam ravishda oshirib borish davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan o‘qitishni tashkil etish orqali ta’milnadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda, xarid qilish tartib- taomilini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxs bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi lozim.

Davlat xaridlari davlat buyurtmachisining o‘z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta’milaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashning, uning iste’mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko‘rsatkichlarining va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Davlat xaridlari:

davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini o‘tkazish xarajatlarini va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini hisobga olish;

davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko‘rilgan naf, ularning sifati va qiymati o‘rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta’milash;

davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o‘tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishi kerak.

Davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligi:

tegishli davlat organlariga, davlat xaridlarining subyektlariga va jamoatchilikka davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda belgilangan tartibda to‘liq, o‘z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyatini ta’milagan holda uni maxsus axborot portaliga joylashtirish;

xarid qilish tartib-taomillariga doir hujjatlarni va hisobotlarni tuzish hamda but saqlashni ta’milash orqali amalga oshiriladi.

Davlat xaridlaridagi raqobat xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o‘rtasidagi, davlat xaridlari elektron tizimlarining

operatorlari o‘rtasidagi va ixtisoslashgan tashkilotlar o‘rtasidagi tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul taklif foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg‘arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqishdagi, shuningdek eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg‘arazlikni nazarda tutadi.

Davlat xaridlarining xolisligi:

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta’minlashga;

davlat xaridlari subyektlari o‘rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg‘arazlikni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga;

davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko‘rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanadi.

Davlat xaridlarida mutanosiblik:

davlat xaridlarini amalga oshirish usulining tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavf-xatariga, qiymatiga, xususiyatiga va murakkabligiga;

talablarning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari malakasiga oid ma’lumotlarga, takliflarni baholash mezonlari va usullarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga);

davlat xaridlari subyektlarining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi ularning o‘z vazifalariga mosligi bilan ta’minlanadi.

Davlat xaridlari maqsadlar, prinsiplar va yondashuvlarning yagonaligiga, davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va o‘zaro aloqadorligiga hamda davlat xaridlari barcha subyektlarining hamkorligiga asoslanadi.

Davlat xaridlarining yagonaligi va yaxlitligi:

davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy baza hamda uni bir xilda qo'llash;

davlat xaridlarining davlat xaridlari to'g'risidagi barcha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta'minlaydigan yagona, yaxlit va kompleks axborot tizimi mavjudligi;

davlat xaridlariga oid hujjatlarni bixillashtirish;

xalqaro standartlarga uyg'un tarzda tovarlarning

(ishlarning, xizmatlarning) standartlashtirilgan yagona milliy klassifikatorini joriy etish; davlat xaridlarini rejalashtirish va amalga oshirishni, davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalarni tuzish va ijro etishni, monitoringni va nazoratni amalga oshirishni, nizolar hamda kelishmovchiliklar ustidan shikoyat qilish va ularni ko'rib chiqishni, davlat xaridlari subyektlarining kasbiy mahorati

darajasi va mas'uliyati oshirilishining tashkil etilishini ta'minlovchi yagona infratuzilmaning mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi.

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashi kerak.

Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanimishini;

monitoring va nazorat o'tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o'tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to'g'risidagi ma'lumotlar axborotning ochiq manbalarida e'lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga

ta’sir ko‘rsatadigan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo‘lishi.

Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a’zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Qonunchilikda ko‘rsatilgan shaxslar:

- xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlarining oldini olishi shart;

- har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi kerak.

- Mavjud bo‘lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar topgan, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarini hamda davlat xaridlari sohasidagi

vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi

to‘g‘risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni ko‘rilgan choralar to‘g‘risida xabardor qilishi shart. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni olgach, ushbu Qonunga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart.

## **2. Davlat xaridlarini tartibga solishning xalqaro xuquqiy asoslari.**

Hozirda dunyoning turli mamlakatlarida davlat xaridini amalga oshirishga huquqiy asos sifatida qo‘llaniladigan bir-nechta hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlarni o‘rganib, mazkur mamlakatlarda davlat xaridini o‘ziga xosligini ko‘rsatish mumkin.

Yunsitral “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” qonuni 1994 yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va jamoat uchun xaridni amalga oshirish buyicha xalqaro tajribani o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu qonun, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda, xususan,

Sharqiy Evropa mamlakatlarida davlat buyurtmasini joylashtirish buyicha model sifatida ishlab chiqilgan.

Yunsitral shakliy qonunidan ko‘zlangan maqsad raqobatni maksimal darajada rivojlantirish, davlat xaridini amalga oshirishda mol etkazib beruvchilarga nisbatan adolatli munosabatni ta’minlash, xarid jaryonini ochiqliligi hamda ob’ektivligini oshirishdan iborat. Mazkur qonun, milliy

xavfsizlik va mudofaa sohalaridan tashqari, barcha sohalarda xaridni amalga oshirish uchun qo‘llashni nazarda tutadi.

Mazkur hujjatning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Ochiqlilik va shaffoflik qismida – xarid to‘g‘risida yozma

shakldagi hisobot yuritilishi (hisobotda tanlovnin yoki boshqa turdagini xaridni amalga oshiruvchi davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshirilgan barcha chora- tadbirlar o'z aksini topishi shart), shuningdek, davlat burtmachisining shartnomani tuzishi haqida ommaviy e'lon qilishi;

2. Kvalifikatsiya qism bo'yicha – mol etkazib beruvchilar kvalifikatsiyasiga bo'lgan talablarni tartibga solish, ular kvalifikatsiyasini o'rghanish jarayoni va tartibi, shuningdek, birlamchi kvalifikatsion tanlovlarni amalga oshirish tartibi;

3. Jaryonni amalga oshirish sifatida – ochiq tanlov xaridni amalga oshirishning asosiy usuli ekanligi; oddiy mahsulotlar uchun, nafaqat ochiq, balki yopiq tanlov yo'li bilan, ya'ni kotirovka so'rovnomasini va yagona mol etkazib beruvchidan xarid qilish; ikki bosqichli tanlov o'tkazish, raqobatli muzokara olib borish, murakkab mahsulotni yoki maslahat xizmatlarni sotib olish uchun taklif so'rovnomasini;

4. Ochiq tanlov jarayoni: savdo to'g'risida e'lon nashr etish; potentsial mol etkazib beruvchilarga tanlov shartlarini etkazish; tanlov arizalarini tayyorlash, zaruriy o'zgartirishlar va tushuntirishlar kiritish; tanlov arizalarini berish; tanlov arizalarini ishtirokchilar oldida ochish; arizani baholash; arizani qabul qilish va mol etkazib berish to'g'risidagi shartnomani qonuniy kuchga kirishi; Qonun xaridning boshqa turlarini

amalga oshirishni detallashtirgan holda keltirib o'tadi (ikki bosqichli tanlovlari, taklif so'rovnomasini va raqobat muzokaralarini).

5. Yuzaga keladigan munozaralarni hal etish bo'limida, mol etkazib beruvchini davlat buyurtmasini joylashtirishi bo'yicha yuzaga keladigan nizolarni ma'muriy, sud organlari orqali hal etish mumkinligi aks ettirilgan. Shuni ta'kidlash joizki, Yunsitral namunaviy qonunchligi bo'lib, u model qonun sifatida juda katta rol o'ynadi. Rossiya Federatsiyasi, Qazog'iston, Qirg'iziston va Sharqiy Evropa davlatlarining davlat xaridini tartibga solish bo'yicha amaldagi qonunchligi asosida mazkur hujjat tamoyillari yotadi.

Xalqaro savdo tashkilotida davlat xaridi bo'yicha shartnoma. 1994 yilda ko'p tomonlama savdo muzokalarining Uruguvay raundida qabul qilingan Hukumat xaridi bo'yicha Kelishuv (Agreement on Government Procurement), o'z ahamiyatiga ko'ra, ikkinchi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. U Savdo va tariflar buyicha umumiy shartnomaning (GATT) muhim elementi hisoblanadi va Xalqaro savdo tashkilotiga(XST) ishtirok etish doirasida mamlakatlar tomonidan imzo chekiladi. Hukumat xaridi bo'yicha Shartnomani imzolash XSTga kirishning sharti hisoblanmasada, ammo keyingi yillarda XSTning yirik ishtirokchilari bo'lgan AQSh, Evropa Ittifoqi mamlakatlari, Kanada, Isroil, Yaponiya, Shveytsariya kabi mamlakatlar nomzod mamlakatlar uchun ushbu hujjatni imzolanishini ikki yoqlama muzokoralarning sharti sifatida qo'ymoqdalar. Ammo, 2008 yilga kelib, XSTga a'zo bo'lgan 152 ta davlatdan faqatgina 39 tasi Hukumat xaridi buyicha mazkur Shartnomani imzolaganlar.

Shartnoma milliy davlat xaridi bozorini uni imzolgan mamlakatlardagi mol etkazib beruvchilar uchun ochib berishi, hamda xorijiy mol etkazib beruvchilarni milliy mol etkazib beruvchilar bilan bir xil shartlar asosida faoliyat yuritishiga imkon berishini nazarda tutadi. Mazkur hujjatdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, xalqaro savdoni rivojlantirish, xorijiy mol etkazib beruvchilarni diskriminatsiya qilishni oldini olish, xarid jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni ochiqligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu kelishuvga muvofiq, davlat buyurtmachisi alohida olingan mol etkazib beruvchiga (milliy belgisiga ko'ra) davlat buyurtmasini olishda imtiyozli sharoit yaratib bermasligi lozim. Shuningdek, sotib olinadigan tovarlarga xalqaro savdoni chegaralovchi texnik talablar qo'yilmasligi yoki tovarlar va xizmatlarga qo'yiladigan barcha texnik talablar xalqaro me'yorlar asosida bo'lishi shart.

Hukmat xaridi Shartnomasiga ko'ra davlat xaridini joylashtirishning uchta shakli keltirilgan: ochiq, tanlanma, chegaralangan. Agar savdoda barcha qiziqish bildirgan tovar va xizmatlarni etkazib beruvchilar ishtirok etishi mumkin bo'lsa, bunday jarayon ochiq hisoblanadi. Agar savdoda

faqatgina sotib oluvchi tashkilot tomonidan taklif olgan mol etkazib beruvchilar ishtirok etadigan bo'lsa, bunday jarayon tanlanma deyiladi. Chegaralangan jarayonda sotib oluvchi tashkilot tovar va xizmatlar etkazib beruvchi tashkilot bilan shartnomada kelishilgan shartlar asosida alohida aloqa o'rnatadi.

Mamlakatimizda davlat xaridi tizimini tartibga soluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar va xalqaro tajribadan kelib chiqib, "Davlat xaridi

to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi dolzarb masala ekanligini ta'kidlaymiz. Fikrimizcha, ushbu qonunning qabul qilinishi bilan hozirda mavjud bir-nechta qonunosti hujjatlarini unifikatsiya qilish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, u davlat xaridini boshqarishning uzoq muddatli strategiyasini shakllantirishga imkon beradi.

Ma'lumki mamlakatimizda bir qator xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorlikda bir necha ijtimoiy-iqtisodiy loyilar moliyalashtirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz davlat xaridi tizimida biror loyihani moliyalashtirishda xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari jalb etilgan bo'lsa, bunda xalqaro moliyaviy institutlarining yo'riqnomalarini nizomlari huquqiy jihatdan ustunlik qiladi.

Bir-qancha xalqaro moliyaviy tashkilotlar xarid haqidagi umumiyoq qoidalari bilan bir qatorda, faqatgina xizmatlarni xarid etishga taalluqli bo'lgan alohida yo'riqnomalarini qoidalarga ham egadirlar. Masalan, Jahon bankining "Jahon tiklanish va taraqqiyoti bankining (JTTB) qarzlari va Jahon rivojlanish assotsiatsiyasi (JRA) kreditlari hisobiga xarid" yo'riqnomasi, "Jahon banki qarzdorlarining maslahatchilarni tanlash va yollash" (Selection and Employment of Consultants by the World Bank Borrowers), Jahon bankining namunaviy tender hujjatlari (WB Standard Bidding Documents), Osiyo taraqqiyot bankining – "Osiyo taraqqiyot banki va uning qarzdorlari tomonidan maslahatchilarni taklif etish bo'yicha yo'riqnomasi" (Guidelines on the use of consultants by ADB and its Borrowers) kabi hujjatlarga ega. Injener-maslahatchilarning xalqaro federatsiyasi (IMXF) 1977 yilda "Maslahat xizmatlarini xarid etishda sifat

asosida tanlash” (Quality-based selection for the procurement of consulting services) qo'llanmasini, 2003 yilda “Maslahatchilarni tanlash bo'yicha IMXF yo'riqnomasi”ni tajriba nashr sifatida chiqardi. Ikkala hujjat ham xalqaro savdo amaliyotida xizmatlarni xarid etishning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlagan.

Evropa Komissiyasining 1999 yildagi “Komissiyaning uchinchi mamlakatlar bilan hamkorlik qilish maqsadida ishlar, tovarlar va xizmatlar etkazib berish uchun tuziladigan shartnomalar” (Manual of Instructions. Contracts for works, supplies and services concluded for the purposes of Community cooperation with third countries) yo'riqnomalar to'plami Evropa Komissiyasining rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirayotgan loyihalarida keng qo'llaniladi.

“Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) tomonidan moliyalashtiriladigan xarid loyihalari uchun qoida va printsiplar” (Procurement Policies and Rules for Projects financed by the European Bank for Reconstruction and Development) hujjati ham u bilan hamkorlik qilayotgan davlatlarda xarid tizimini moliyalashtirishda asosiy yuridik hujjat bo'lib hisoblanadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mamlakatimizda davlat xaridlari soxasini tartibga soluvchi qanday hujjatlar mavjud?
2. O'zbekiston Respublikasida “Davlat xaridi to'g'risida”gi Qonunni qabul qilishning dolzarbliги nimalar bilan izohланади?
3. Yunsitral “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida” qonuning asosiy maqsadi nimadan iborat?

### **3- BOB. DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH MODELLARI VA SHAKLLARI**

- 1. Davlat xaridlarini tashkil etishning markazlashgan, markazlashmagan va aralash modeli**
- 2. Davlat xaridini tashkil etish shakllari.**

**Tayanch so'z va iboralar:** davlat xaridlari - markazlashgan model - markazlashmagan model - aralash model - davlat xaridining tashkiliy shakllari.

#### **1. Davlat xaridlarini tashkil etishning markazlashgan, markazlashmagan va aralash modeli**

Turli davlatlarda davlat xaridini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, xar bir mamlakat o'ziga mos bo'lgan tartibda davlat xaridlari jarayonini tashkil etishga intiladi. Bunda markazlashgan, markazlashmagan va aralash modellardan foydalaniladi.

Markazlashgan modelda davlat xaridi uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiylar hukumatning yagona tarkibiy bo'linmasi - xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashgan model barcha tarmoq va bo'limlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar, markazlashish darajasi yuqori bo'lsa, barcha turdag'i xaridga javobgar bo'lgan maxsus idora (yoki yirik kompaniyalarda xarid departamenti) shakllantiriladi.

Markazlashmagan modelda davlatning buryutmachisi o'z ixtisosligi buyicha xaridga buryurtmani alohida amalga oshiradi. Taqsimlangan modelda kompaniyaning har bir bo'limi (vazirlilik, departament va h.k.) o'z ehtiyojlari uchun xaridni mustaqil tarzda amalga oshiradi. Shu maqsadda, uning tarkibida xaridni amalga oshiruvchi maxsus tuzilma, bo'lim tashkil etilgan.

Ikkala modelning ham yutuq va kamchiliklari mavjud: taqsimlangan model ancha egiluvchan, ammo ko'p xarajat talab etadi. O'z navbatida, markazlashgan model yirik hajmdagi ulgurji xarid tufayli

past baholarni ta'minlaydi, ammo egiluvchan emas va har doim ham tovarlar hamda xizmatlarning arizada ko'rsatilgan xususiyatlarini o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Aralash modelda esa, xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Har qanday mamlakatda ham, davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslarini shakllantirish va uni doimiy tarzda takomillashtirib borish, davlat moliya tizimining muhim strategik vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat xaridini tashkil etish jarayoni, uning tashkiliy shakllarini aniqlab olishdan boshlanadi.

Xalqaro va milliy qonunchilikda o'rnatilgan me'yorlar asosida xaridning qaysi shakli qo'llanilishi aniqlanadi va zaruriy-me'yoriy jarayonlar buyurtmachi tomonidan boshqarilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish xalqaro va milliy qonunchilik asosida tartibga solinadi.

Davlat xaridi tizimini boshqarish bir-biri bilan uzviy bog'langan to'rtta elementni o'z ichiga oladi. Bu elementlar kompleks tusga ega bo'lib, har bir elementni muvoffaqiyatli amalga oshirish, davlat xaridini samarali bo'lishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda davlat mablag'lari hisobiga tovar, ish, xizmatlarni xarid qilishda bir necha raqobatbardosh usullar belgilangan bo'lib, bu usullarga asoslanib davlat buyurtmachilar shartnomada belgilanishi lozim bo'lgan yetkazib beruvchi, pudratchi yoki ish bajaruvchini o'zları tanlash huquqiga egadirlar.

Byudjet tashkiloti va byudjetdan mablag' oluvchilarning ehtiyojlarini qondirish jarayonida yetkazib beruvchi (pudratchi, ish bajaruvchi)ni tanlashning qaysi usulini qo'llash – mavjud shartlar va qanday tovar, ish, xizmatlar kerakligiga bog'liq.

## **2.Davlat xaridini tashkil etish shakllari.**

Xalqaro amaliyotda davlat xaridi quyidagi tashkiliy shakllarda amalgalashiriladi: ochiq tanlov, ishtiroki chegaralanga tanlov, ikki bosqichli tanlov Ochiq tanlovda buyurtmachi tomonidan xarid to'g'risidagi ma'lumot

va kerakli tanlov hujjatlari yagona informatsion tizimda chegaralanmagan miqdordagi shaxslar uchun joylashtiriladi va xarid ishtirokchilariga yagona talablar qo'yiladi.

Raqobatbardosh xaridlarning asosiy usuli ochiq tanlov bo'lib, bunda tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnomani olgan har qanday mol yetkazib beruvchi tanlovda ishtirok etishi mumkin.

Tanlov g'olib bo'lib, shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan shaxs hisoblanadi. Odatda, bu tanlovda juda katta hajmdagi hujjatlar talab etiladi.

Ishtiroki chegaralanga tanlov. Ishtiroki chegaralangan tanlovda buyurtmachi tomonidan xarid o'tkazilishi va tanlov hujjatlari to'g'risidagi ma'lumot yagona informatsion tizim orqali chegaralanmagan miqdordagi shaxslar uchun joylashtirilib, tanlov ishtirokchilariga yagona va qo'shimcha talablar qo'yiladi hamda bu tanlov g'olib kvalifikatsionoldi tanlovdan o'tgan xarid ishtirokchilari orasidan aniqlanadi.

Ishtiroki chegaralangan tanlov quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- agar tovar yetkazib berish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ularning innovatsion, yuqori texnologik yoki maxsus xarakterdagi murakkablik darajada bo'lsa va ularni faqatgina yuqori malakali mol yetkazib beruvchilar (pudratchilar, ish bajaruvchilar) amalgalashira olsa;

- xalqlarning tarixiy obidalari kabi madaniy obyektlarni saqlash bo'yicha ishlar bajarish;

- Muzey Fondi tarkibiga kiritilgan muzeylar kolleksiyalari va muzey predmetlarini restavratsiya qilish;

- Arxiv fondining hujjatlarini restavratsiya qilish;

- Kutubxona fondiga kirga qimmatli va noyob hujjatlarni

restavratsiya qilish;

- Mazkur muzey, arxiv, kutubxonalarda ishlar bajarish uchun ularning hisob bazasi hamda muzey kolleksiyalari va predmetlari, arxivdagi hujjatlarning xavfsizligini ta'minlash tizimiga kirish ruxsati bo'lishi lozim bo'lgan holatlar kiradi.

Ishlarning texnik yoki texnologik darajasining murakkabligi sababli hamda ularning innovatsion, yuqori texnologiyali va maxsuslashtirilgan xarakterda bo'lganligi sababli bu ishlarni faqatgina maxsus va yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislar bajarishi lozim bo'lgan holatlar ro'yxati hukumat tomonidan belgilab beriladi.

Ikki bosqichli tanlov. Ikki bosqichli tanlov deganda, buyurtmachi tomonidan xarid o'tkazilishi va tanlov hujjatlari to'g'risidagi ma'lumot yagona informatsion tizim orqali chegaralanmagan miqdordagi shaxslar uchun joylashtirilib, tanlov ishtirokchilariga yagona va qo'shimcha talablar qo'yiladi va bu tanlov g'olib bo'lib, tanlovnинг ikkala bosqichidan (shu jumladan, qo'shimcha talablar qo'yilganda, birinchi bosqichdagi kvalifikatsiya oldi tanlovdan ham) o'tgan va ikkinchi bosqichda shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan shaxs g'olib hisoblanadigan tanlov tushuniladi.

Buyurtmachi ikki bosqichli tanlovn ni quyidagi shartlarga binoan o'tkazishga haqli. Bular:

1) tanlov ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, loyihamiy ishlar ( shu jumladan, arxitektura-qurilish loyihamalarini tuzish)ni bajarish, tajribalar o'tkazish, ilmiy izlanish, innovatsion va yuqori texnologik mahsulotni

yetkazib berish, energoxizmat hamda adabiyot yoki san'at asarlarini yaratish bi;an bo'gliq bo'lgan shartnomalarni tuzish uchun o'tkazilishi kerak;

2) xarid obyektining xususiyatlarini aniqlashtirish uchun xarid ishtirokchilari bilan uning muhokamasini o'tkazish shart.

## **4- BOB. DAVLAT XARIDLARI JARAYONIGA DOIR UMUMIY TALABLAR**

- 1.Davlat xaridlari jarayoni.**
- 2.Davlat xaridlarini rezhalashtirish.**
- 3. Baholash mezonlari va tartib-taomillariga taalluqli qoidalar.**

**Tayanch so'z va iboralar:** davlat xaridi jarayoni – davlat xaridlarini rejhalashtirish – baxolash mezonlari – davlar xaridi tartib-taomillari – takliflarni ta'minlash

- 1.Davlat xaridlari jarayoni.**

Davlat xaridlari jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- davlat xaridlarini rejhalashtirish;
- xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish;
- shartnomani tuzish va bajarish;
- davlat xaridlari monitoringi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga va boshqa davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni “foydalanishga tayyor holda topshirish” shartlari asosida “fast-track” usulida (bir vaqtning o‘zida loyihalashtirish, xarid qilish va qurilish ishlari) amalga oshirishga yo‘l qo‘yiladi.

Maxsus axborot portalni vakolatli organ tomonidan yuritiladigan, davlat xaridlari amalga oshirilishi to‘g‘risidagi e’lonlar, davlat xaridlarining yakunlari, ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotni va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa axborotni elektron shaklda ko‘zdan kechirishni, shuningdek amalga oshirilgan elektron davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari tomonidan kiritiladigan (yuboriladigan) axborotni to‘plashni ta’minlovchi veb-saytdir (maxsus

elektron platforma).

Maxsus axborot portalida:

davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotning jamoatchilik uchun ochiqligi;

davlat xaridlari sohasidagi axborotni jamlash, unga ishlov berish va tahliliy hisobotni shakllantirish;

davlat xaridlarining elektron tizimlari va boshqa axborot tizimlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari tomonidan davlat xaridlari subyektlarining o‘z vazifalarini ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablari doirasida amalga oshirayotganligi ustidan monitoring va nazorat o‘tkazish ta’milnadi.

Maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish, davlat xaridlari monitoringi va nazoratini o‘tkazish jarayonlari tizimlashtiriladi.

Budget buyurtmachilarining davlat xaridlari bo‘yicha to‘lovlari maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib- taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish va ular to‘g‘risida axborot joylashtirish jarayonlari tugaganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat xaridlari subyektlarining hamkorligini, elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishini ta’milaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui davlat xaridlarining elektron tizimidir.

Davlat xaridlarining elektron tizimi vakolatli organ tomonidan belgilangan talablarga, shu jumladan:

texnik parametrlarga oid talablarga;

texnik va texnologik imkoniyatlarga oid talablarga;

axborotni va tegishli ma’lumotlarni saqlovchi asbob-uskunalarining

joylashish yeriga oid talablarga;

axborot xavfsizligi usullari va shartlariga;

maxsus axborot portalni va boshqa tashqi axborot tizimlari bilan hamkorlik imkoniyatlariga;

xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga oid talablarga;

davlat xaridlari subyektlarining, vakolatli organning va xarid qilish tartib-taomillari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlarining tizimdan foydalanish imkoniyatlariga;

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa talablarga mos bo'lishi kerak.

## **2. Davlat xaridlарини rejoшashtirish**

Davlat xaridlарининг yillik reja-jadvali budget buyurtmachilarini tomonidan joriy yilning 25-martiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Kelgusi yil uchun davlat xaridlарининг yillik reja-jadvallari korporativ buyurtmachilar tomonidan joriy yilning 25-dekabriga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Kelgusi chorak uchun davlat xaridlарининг choraklik reja-jadvallari davlat buyurtmachilarini tomonidan joriy chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan

iborat: ang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion; eng yaxshi takliflarni tanlash;  
tender;

elektron to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan do'kon; davlat

boshl

xaridlari;



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot jumlasiga quyidagilar kiradi:

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik;
- davlat xaridlarining reja-jadvallari;
- davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlar;
- hujjatlarning namunaviy shakllari;
- xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan namunaviy shartnomalar;
- davlat xaridlari bosqichlarining natijalari to‘g‘risidagi axborot;
- Shartnomalarning yagona reyestri;
- Yagona yetkazib beruvchilar reyestri;
- Insofsiz ijrochilarining yagona reyestri;
- Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarorlari;
- davlat xaridlari bo‘yicha statistik axborot.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq, xolis va ishonchli bo‘lishi kerak.

### **3. Baholash mezonlari va tartib-taomillariga taalluqli qoidalar.**

Baholash mezonlariga va tartib-taomillariga taalluqli qoidalar quyidagilardan iborat.

Ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha davlat xaridlariga taalluqli bo‘lgan takliflarini baholash mezonlarida:

- narx;
- yetkazib berish bazisi;

- yetkazib berish muddatlari;
- tavsifnomalar va sifat ko‘rsatkichlari;
- ekspluatatsiya qilish (foydalanish) muddati;
- to‘lov va kafolatlar shartlari;
- muayyan davrdagi ekspluatatsiya qilishga, shu jumladan foydalanish va ta’mirlashga doir xarajatlar;
- qonunchilik talablariga zid bo‘lmagan boshqa mezonlar nazarda tutiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan belgilanadigan davlat xaridi shartlarida ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari, ularning nisbiy qiymati, baholash tartib-taomillari doirasida baholash mezonlarini qo‘llash tartibi bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilarining takliflarini baholash va g‘olibni aniqlashda davlat buyurtmachisi faqat xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan baholash mezonlari va tartib-taomillaridan foydalanadi hamda bu mezonlar va tartib-taomillarni ushbu hujjatlarda bayon etilgan tartibda qo‘llaydi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik muhitni yaxshilashga ko‘maklashish yoki atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida ishtirokchilarining takliflarini baholash va ijrochini aniqlash jarayonida energiya samaradorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik jihatdan maqbul materiallardan hamda ikkilamchi xomashyodan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi mezonlardan va xarid qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ekologik maqbulligini baholashga oid boshqa omillardan foydalanishi mumkin.

Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalaridan foydalanadi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifi xolis, funksional va umumiyl xususiyatga ega. Tavsifda tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridining tegishli texnik, sifat, zarur hollarda

ekspluatatsiya qilinish xususiyatlari ko‘rsatiladi.

Davlat xaridlarining tavsifi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) texnik xossalardan kelib chiqqan holda, tasniflarni, rejalarini, chizmalarni, eskizlarni, talablarni hamda sinovlar va sinov usullari, qadoqlash, tamg‘alash haqidagi yoki muvofiqlik sertifikati, shuningdek shartli belgilar va atamalar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olishi mumkin.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifiga aniq tovar belgisiga yoki nomiga, patentga, konstruksiyaga yoki modelga, u mansub bo‘lgan muayyan manbagaga yoki ishlab chiqaruvchiga, eksklyuziv vakolatli huquqqa doir talablar yoki havolalar kiritilmasligi kerak, bundan

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi xususiyatlarini ta’riflashning boshqa yetarlicha aniq usuli mavjud bo‘lmagan hollar mustasno va bunda davlat xaridining tavsifiga “yoki analogi” degan so‘zlar kiritilishi kerak, bundan tovarlarning bir-biriga mos kelmasligi hollari mustasno.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifida quyidagilar bo‘lishi kerak:

    tovarlarning soni;

    bajarilishi (ko‘rsatilishi) kerak bo‘lgan ishlar (xizmatlar);

    tovarlar yetkazib berilishi lozim bo‘lgan yoki ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan joy;

    tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatishning maqbul yoki talab etiladigan muddatlari, agar ular mavjud bo‘lsa.

    Xarid qilish hujjatlarida xarid qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat buyurtmachisi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash imkonini beradigan ko‘rsatkichlar bo‘lishi kerak. Bunda shunday ko‘rsatkichlarning eng ko‘p va (yoki) eng kam qiymatlari, shuningdek o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan

ko‘rsatkichlarning qiymatlari ko‘rsatiladi.

Zarur bo‘lganda davlat buyurtmachisi tomonidan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kafolat muddatiga va (yoki) ularning sifatiga beriladigan kafolatlar hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko‘rsatishga, tovardan foydalanish xarajatlariga, tovarni montaj qilish va sozlashning

majburiyligiga, tovardan foydalanuvchi va unga xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarni o‘qitishga doir talablar belgilanadi.

Mashinalar va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida tovarning kafolat muddatiga va (yoki) uning sifatiga beriladigan kafolatlar hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko‘rsatishga, tovarga kafolat muddati mobaynida xizmat ko‘rsatish xarajatlariga, shuningdek tovarni montaj qilish va sozlashga doir, agar bu tovarning texnik hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, talablarni belgilaydi. Yangi mashinalar va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida ushbu tovarni ishlab chiqaruvchining va (yoki) yetkazib beruvchining kafolatini taqdim etishga hamda bunday kafolatning amal qilish muddatiga nisbatan qo‘sishimcha ravishda talablar belgilaydi. Bunday kafolatni berish ushbu tovar bilan birga amalga oshiriladi.

Agar tovarlarning davlat xaridi tavsifida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yetkazib berilayotgan tovar yangi bo‘lishi kerak.

Xarid qilish hujjatlariga tovarni ishlab chiqaruvchiga, ishtirokchiga nisbatan davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga zid bo‘lgan, oshirib yuborilgan talablarni, shu jumladan ishtirokchining malakasiga nisbatan oshirib yuborilgan talabni (shu jumladan tovarning, ishning yoki xizmatning sifatiga, texnik xususiyatlariga doir talablar, tovarning funksional xususiyatlariga (iste’mol qilish xususiyatlariga) doir talablar shaklida) kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo‘yicha tuzilgan shartnomaga qo‘sishimcha kelishuv uning muhim shartlarini, xususan tovar (ish, xizmat), uning sifati va assortimentini o‘zgartirish, miqdorini va bahosini

oshirish hamda yetkazib berish muddatini uzaytirish tarzida o‘zgartirmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno. Shartnoma bo‘yicha uning umumiyligi boshlang‘ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi qo‘srimcha ishlar va xizmatlarni amalga oshirish yuzasidan o‘zgartirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat tilida e’lon qilinadi va tarqatiladi. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat tili bilan bir vaqtda boshqa tillarda ham e’lon qilinishi va tarqatilishi mumkin. Boshqa tillarda e’lon qilinayotgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotning mazmuni davlat tilida e’lon qilingan axborotga muvofiq bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lishi kerak: shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar

resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi; shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

Insofsiz ijrochilarining yagona reyestrda qayd etilmaganligi.

Davlat buyurtmachisi zarur bo‘lganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) o‘ziga xos xossalardan yoki xususiyatlardan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga qo‘srimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘srimcha talablar davlat xaridlarining asosiy prinsiplarga zid bo‘lmasligi kerak.

Davlat xaridi to‘g‘risidagi axborotda ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘srimcha talablar ushbu axborot e’lon qilingan paytda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilarga qo‘srimcha talablar qo‘yiladigan davlat xaridida

ishtirok etish uchun ishtirokchilar dastlabki malaka tanlovidan o‘tadi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) birgalikdagi davlat xaridlarini shakllantirish ikki va undan ortiq davlat buyurtmachisining davlat xaridlari reja-jadvallariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) birgalikdagi davlat xaridlarini shakllantirish bir davlat dasturida yoki loyihalar portfelida ishtirok etayotgan davlat buyurtmachilarida amalga oshirilishi kerak.

Xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usulda ta’minlanishi zarurligi to‘g‘risidagi talabni belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga nisbatan takliflarning ta’minlanishi zarurligi tarzidagi talab barcha ishtirokchilarga taalluqli bo‘ladi va davlat xaridlarining shartlarida ko‘rsatiladi.

Xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning ta’minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, takliflar

yuborilguniga qadar ishtirokchi davlat buyurtmachisiga ta’minotning maqbulligini tasdiqlash to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so‘rovga ikki ish kuni davomida javob beradi.

Davlat buyurtmachisi taklifni ta’minlash summasi to‘lanishini talab qilmaydi va ta’minlash to‘g‘risidagi hujjatni bir ish kuni davomida qaytaradi yoki quyidagi voqealardan biri yuz bergenidan keyin uning qaytarilishini ta’minlaydi:

taklifni ta’minlashning amal qilish muddati tugashi;

shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta’minlanishi, agar bunday ta’minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlarining bekor qilinishi;

ta’kliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi.

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda davlat buyurtmachisining davlat xaridlari elektron tizimining operatori bilan va

davlat xaridlari elektron tizimi operatorining ishtirokchi bilan, shuningdek davlat buyurtmachisining g‘olib aniqlanguniga qadar ishtirokchilar bilan muzokaralar olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ishtirokchilar xarid qilish hujjatlari va qo‘llanilayotgan xarid qilish tartib-taomili yuzasidan tushuntirishlar olish uchun davlat buyurtmachisiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga murojaat qilishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilot xarid qilish hujjatlari va qo‘llanilayotgan xarid qilish tartib-taomili

yuzasidan tushuntirish berish to‘g‘risida so‘rov olganidan keyin so‘ralgan tushuntirishlarni ikki ish kuni ichida taqdim etadi.

Xarid qilish hujjatlari va xarid qilish tartib-taomili xususida tushuntirishlar xarid qilish hujjatlari va qo‘llanilayotgan xarid qilish tartib- taomili yuzasidan tushuntirish berish to‘g‘risidagi so‘rovi bilan bir xil shaklda taqdim etiladi.

Xarid komissiyasi yoki davlat xaridlari elektron tizimining operatori ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

u to‘g‘risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd mavjud bo‘lsa;

unda soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa;

o‘ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo‘lsa;

ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat

talablariga javob bermasa;

ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga

har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

Xarid komissiyasining yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to‘g‘risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib- taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

Davlat buyurtmachisi o‘tkazilgan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan taklifning aksepti to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

G‘olib bo‘lgan taklifning aksepti quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

davlat xaridlari bekor qilinmagan bo‘lsa;

g‘olib bo‘lgan taklifni yuborgan ishtirokchi chetlatilmagan bo‘lsa; xarid qilish tartib-taomillari buzilmagan bo‘lsa.

Davlat buyurtmachisi g‘olib bo‘lgan taklif akseptiga qadar istalgan

vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda davlat buyurtmachisi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e’lon qiladi.

Davlat buyurtmachisi davlat xaridi bekor qilinganligi uchun javobgar bo‘lmaydi, bundan bekor qilish davlat buyurtmachisining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibati bo‘lgan hollar mustasno.

Davlat buyurtmachilar, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilotlar, ekspert tashkilotlari davlat xaridlarini amalga oshirish uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi Odob-

axloq qoidalarini qabul qiladi:

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish chora-tadbirlari;

tegishli xodimlarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish tartib-taomillari va unga doir talablar.

Odob-axloq qoidalarida davlat buyurtmachilari, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilotlar, ekspert tashkilotlari xodimlarining, xarid komissiyasi a’zolarining kasbga doir va xizmatdan tashqari faoliyatida odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalari, kasbiy tayyorgarligiga doir talablar belgilanadi.

Davlat buyurtmachisining va davlat xaridlari elektron tizimi operatorining mas’ul shaxslari, ixtisoslashgan va ekspert tashkilotlarining xodimlari, xarid komissiyasi a’zolari, shuningdek ekspertlar tomonidan ishtirokchilar hamda ijrochilardan moddiy va nomoddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

Odob-axloq qoidalari davlat buyurtmachilarining yoki ularning yuqori turuvchi organlarining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinishi lozim.

Davlat xaridlari jarayonida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

agar ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchi vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb

etilgan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo‘lsa, ishtirokchining davlat xaridlarida ishtirok etishiga;

ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga, bundan ushbu Qonun 16-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

manfaatlar to‘qnashuviga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo‘lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta’sir o‘tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi

to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo‘yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo‘l qo‘ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga;

davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning matniga ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga;

narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishiga;

ishonchsiz yoki buzib ko‘rsatilgan axborotni taqdim etishga yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslangan usullarini chetlab o‘tish maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo‘lib tashlashga;

ishtirokchilarning sun’iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo‘yicha takliflar berishiga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda bajarishni rad etishiga;

davlat xaridi tarkibiga texnologik va funksional jihatdan o‘zaro bir- biri bilan bog‘liq bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kiritishga;

firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo‘lishiga; moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi to‘g‘risida

tasdiqlarga ega bo‘lmagan yoki ajratilgan mablag‘lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

Vakolatli organ davlat xaridlari elektron tizimlarining va maxsus axborot portalining axborotlar bazalari o‘rtasida axborot almashish orqali Shartnomalarning yagona reyestrini yuritadi.

Shartnomalarning yagona reyestriga quyidagi hujjatlar va axborot kiritiladi:

davlat buyurtmachisining nomi;  
moliyalashtirish manbasi;

ijrochini aniqlash usuli;

xarid qilish tartib-taomilining natijalari sarhisob qilinadigan sana va shartnoma tuzish asoslarini tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari;

shartnoma tuzilgan sana;

tovarning (ishning, xizmatning) nomi, shartnoma bahosi va uni bajarish muddati, tovar (ish, xizmat) birligining narxi, u kelib chiqqan mamlakatning va ishlab chiqaruvchining nomi;

ijrochi soliq to‘lovchining nomi, firma nomi (agar mavjud bo‘lsa), joylashgan yeri (yuridik shaxs uchun — pochta manzili), familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa), yashash joyi (jismoniy shaxs uchun), ijrochining soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami yoki chet ellik shaxs uchun tegishli chet davlatning qonunchiligidagi muvofiq ijrochining soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami analogi, benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi axborot, bundan tarixiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan va davlat muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o‘xshash fondlarni to‘ldirish uchun mo‘ljallangan madaniy qimmatliklarni, shu jumladan muzey ashyolarini va muzey kolleksiyalarini, shuningdek noyob va qimmatbaho nashrlarni, qo‘lyozmalarni, arxiv hujjatlarini (shu jumladan ularning ko‘chirma nusxalarini) yetkazib beruvchi bo‘lgan jismoniy shaxs to‘g‘risidagi axborot mustasno;

shartnomaning o‘zgartirilgan shartlari ko‘rsatilgan holda shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi axborot;

shartnomani ijro etish to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan shartnoma uchun haq to‘lash, shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishli tarzda bajarmaganlik munosabati bilan moliyaviy sanksiyalar (jarimalar, penyalar) hisoblanishi to‘g‘risidagi axborot;

bekor qilish sabablari va asoslari ko‘rsatilgan holda shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi axborot.

Shartnomalarning yagona reyestriddagi axborot to‘lov undirilmagan holda tanishib chiqish uchun ochiqdir.

Shartnomalarning yagona reyestrini yuritish tartibi vakolatli organ

tomonidan belgilanadi.

Qaysi shartnomalar to‘g‘risidagi axborot Shartnomalarning yagona reyestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘sha shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri vakolatli organ tomonidan shakllantiriladigan ro‘yxatdan iborat bo‘lib, unga quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha belgilangan shartlar asosida davlat buyurtmachisi bilan shartnoma tuzishni va davlat xaridlarini amalga oshirishni rad etgan yoki boshqacha usulda bo‘yin tovlagan xarid qilish tartib-taomillari g‘oliblari to‘g‘risidagi;

majburiyatlarni bajarmaganlikda yoxud tegishli tarzda bajarmaganlikda belgilangan tartibda aybdor deb topilgan ijrochilar haqidagi, bundan majburiyatlar bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibatida bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollar mustasno;

davlat xaridlari jarayonida yolg‘on yoki soxta hujjatlarni taqdim etgan, ayni bitta lotda ishtirok etgan affillangan shaxslar yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib bermagan ishtirokchilar to‘g‘risidagi;

sudning qaroriga ko‘ra firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan ijrochilar to‘g‘risidagi.

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilgan ijrochining ikki yil davomida davlat xaridlarida ishtirok etishi mumkin emas, bu muddat tugaganidan keyin ijrochi Insofsiz ijrochilarning yagona reyestridan chiqarilgan hisoblanadi.

Ijrochilar Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritish to‘g‘risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibi vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi.

## **5- BOB. ELEKTRON DO'KON ORQALI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH**

- 1. Elektron do'kon tushunchasi.**
- 2. Elektron do'konning ishlash tartibi va undan foydalanish.**

**Tayanch so'z va iboralar:** elektron do'kon – shartnoma – tovar – ish – xizmat – narx - budget buyurtmachilari - korporativ buyurtmachilar – electron raqamli imzo

### **1. Elektron do'kon tushunchasi.**

Elektron do'kon - davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish mezonlari

Elektron do'konda:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha) qiymatdagi tovarlarning;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining elliq baravarigacha) qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do'kon orqali budget buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdag'i tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do'kon orqali budget buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdag'i ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida

bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha (korporativ buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha) amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘konda takliflarning joylashtirilishi quyidagicha bo’ladi. Elektron do‘kon ishtirokchilarning takliflaridan shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do‘konda qo‘yilgan taklifi davlat buyurtmachilariga yuborilgan ommaviy ofertadir.

Ishtirokchi tomonidan elektron do‘konda joylashtirilgan taklifda quyidagilar ko‘rsatiladi:

taklif etilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nomi; sotish narxi;  
tovarning eng ko‘p va eng kam to‘pi;

tovarning rusumi va texnik parametrlari (standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjat, texnik pasport);

tovarning fotosurati;

tovar yetkazib beriladigan (ish bajariladigan, xizmat ko‘rsatiladigan) hudud;

tovari ishlab chiqaruvchi va u kelib chiqqan mamlakat to‘g‘risidagi axborot;

kafolat shartlari va muddati to‘g‘risidagi axborot;

tovar ishlab chiqarilgan yil (oziq-ovqatlar va tez buziladigan tovarlarning ishlab chiqarilgan kuni, oy, yili);

tovarning yaroqlilik muddati (kun, oy, yil); ishni bajarish, xizmatni ko‘rsatish muddati;

tovari (ishni, xizmatni) majburiy sertifikatlashtirish talab etiladigan hollarda muvofiqlik sertifikati to‘g‘risidagi axborot, shuningdek sanitariya- epidemiologik, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza haqidagi axborot;

qonunchilikka binoan litsenziyalashning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat olishning yoxud

faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnomani yuborishning majburiy talabi mavjud bo‘lgan hollarda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi axborot. Ishtirokchining ofertasi u elektron do‘konda joylashtirilgan paytdan e’tiboran o‘n besh ish kuni mobaynida amal qiladi. Ushbu muddat tugaganidan keyin ishtirokchi uni yana o‘n besh ish kuniga aktivlashtirishga haqlidir.

Oferta davlat buyurtmachisi tomonidan akseptlangunga qadar ishtirokchi ofertani har qanday muddatda chaqirib olishga yoki unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritishga haqlidir.

## **2. Elektron do‘konning ishlash tartibi va undan foydalanish.**

Elektron do‘konda xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazish tartibi Davlat buyurtmachisi elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan o‘zi uchun zarur bo‘lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va tovar (ish, xizmat) tanlanganidan keyin narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik rejimda, narxlar so‘rovi mexanizmini amalgalash oshirgan holda tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek elektron do‘konda o‘xhash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to‘g‘risida takliflar yuborilishini ta’minlaydi.

Ishtirokchilar narxlar so‘rovida ishtirok etish to‘g‘risidagi taklif davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yuborilgan paytdan e’tiboran qirq sakkiz soat ichida o‘z takliflarini berishga haqlidir.

Ishtirokchilarga yuborilayotgan narxlar so‘rovida ishtirok etish to‘g‘risidagi taklif davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasiga doir havolani o‘z ichiga oladi.

Xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish taklifini olgan

ishtirokchi davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan oferta narxidan pastroq narx bo‘yicha taklif kiritishga haqli.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo‘yicha takliflarni taqqoslash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va eng past narxni taklif qilgan ijrochi o‘rtasida tuzilgan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan davlat buyurtmachisi yoki ishtirokchilar yakunlar sarhisob qilinadigan paytga qadar foydalana olmaydi. Ijrochinining nomi g‘olib aniqlangan paytda davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettiriladi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi shartnomani davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shakllantiradi.

Xarid qilish tartib-taomillarining yakuniga ko‘ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan hollarda davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisiga elektron shaklda savdolashish imkonini beruvchi so‘rovni yuboradi. Bunda davlat buyurtmachisida tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga u taklif qilgan narxdan pastroq asoslangan narx so‘rovini yuborish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi bunday so‘rovni bir ish kuni ichida qabul qilishi yoki rad etishi mumkin.

Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so‘rovini qabul qilganda davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va ijrochi o‘rtasidagi bitimni davlat buyurtmachisi tomonidan yuborilgan so‘rov narxi asosida ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Agar tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so‘rovini qabul qilmasa yoki rad etsa, davlat buyurtmachisi o‘z xohishiga ko‘ra mazkur ishtirokchi bilan shartnomani rasmiylashtirishi yoki ushbu Qonun talablariga muvofiq boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan

auksion yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali xaridni amalga oshirishi mumkin. Bunda javobgarlik davlat buyurtmachisining zimmasiga yuklatiladi.

Agar xarid qilish tartib-taomillari tugaganidan keyin bir ish kuni ichida davlat buyurtmachisi tomonidan narx so‘rovi yuborilmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va ijrochi o‘rtasidagi bitimni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan narxlarni o‘rganish davlat xaridlarining elektron tizimi yoki boshqa ochiq manbalarning ma’lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Elektron do’kon tushunchasiga ta’rif bering.
2. Elektron do’kon ishslash tartibi qanday?
3. Elektron do’kondan foydalanish tartibi qanday?

## **6-BOB. BOSHLANG'ICH NARXNI PASAYTIRISH UCHUN O'TKAZILADIGAN AUKSION**

- 1. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion tushunchasi.**
- 2. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionni o‘tkazish tartibi.**

**Tayanch so’z va iboralar:** Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion – tovar – mezonlar – narx mexanizmi

- 1. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion tushunchasi.**

**Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion** — davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etish chog‘ida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezoni bo‘ladi;

Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo‘lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

tovarning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budget buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo‘lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

Xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obyekti bo‘la olmaydi. Tovarni e'londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo‘yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g‘olibi bo‘ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo‘lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon.

Auksion faqat elektron shaklda o‘tkaziladi.

Auksionda ishtirok etish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga e’lon joylashtiradi.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon u amalga oshirilishidan kamida besh ish kuni avval joylashtirilishi kerak.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

davlat buyurtmachisining nomi va manzili;

auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o‘tkaziladigan davr); auksion predmetining boshlang‘ich narxi;

auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi); tovarning miqdori;

tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;

tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;

tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

zarur bo‘lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

tovarning o‘ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning va davlat buyurtmachisi buyurtmanomasining matniga auksion predmetiga taalluqli bo‘limgan va ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan talablarni kiritish taqiqlanadi.

Maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron

tizimiga joylashtirilgan auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon avtomatik ravishda davlat buyurtmachisining buyurtmanomasi etib o‘zgartiriladi.

## **2. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionni o‘tkazish tartibi.**

Auksion davlat xaridlarining elektron tizimida boshlang‘ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Auksionni o‘tkazish, kiritilgan ta’midot summasiga muvofiq har bir lot bo‘yicha auksiondan foydalanish, auksion g‘oliblarini aniqlash, bitimni

ro‘yxatdan o‘tkazish va shartnomani shakllantirish davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Auksionni o‘tkazish chog‘ida ishtirokchilar auksion boshlangan paytdan e’tiboran va u tamom bo‘ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo‘yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog‘lanishga doir ma’lumotlar auksion g‘olibi aniqlanadigan paytga qadar davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilmaydi.

Auksion tugaydigan vaqt kelganda davlat xaridlarining elektron tizimi auksion o‘tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko‘rsatilgan taklifni bergen ishtirokchi auksion g‘olibi sifatida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va davlat buyurtmachisining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

Auksionni o‘tkazilmagan deb e’lon qilishning umumiy tartibi va oqibatlari.

Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, auksion o‘tkazilmagan deb hisoblanadi va g‘olib aniqlanmaydi. Davlat buyurtmachisi auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq elektron

do'kon

vositasida Qonunnchilikda belgilangan mezonlar doirasida, yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo‘lgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

## **7-BOB. TANLOV SAVDOLARI**

### **1. Tanlov tushunchasi.**

### **2. Tanlov o'tkazish tartibi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** tanlov – taklif – ishtirokchi – xarid komissiyasi – g'olibni aniqlash – maxsus axborot portal – tanlov xaqidagi e'lon

### **1.Tanlov tushunchasi.**

Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budget buyurtmachilar uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budget buyurtmachilar uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan

hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasiga kiritiladi.

Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan

qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi. Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon. Tanlash vositasidagi davlat xaridi to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra — uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi beriladigan bo‘lsa, tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon faqat davlat xaridiga doir texnik topshiriq bo‘yicha Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobjiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra — o‘zining rasmiy veb-saytiga yoki o‘zining yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o‘ziga xos xossalardan yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat buyurtmachisi tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni ushbu moddaning uchinch

qismida belgilanganiga nisbatan uzoqroq muddatga joylashtirishga haqli.

Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

tanlashni o‘tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi; tanlash o‘tkaziladigan joyning manzili;

ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

vaqt;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish bilan bir vaqtida davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot; ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniadigan

valyuta, to‘lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va,  
zaruriyatga

qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;  
ishtirokchilarga tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari

qoidalariga  
doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish  
muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;  
texnik topshiriq;

ushbu Qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko‘rib  
chiqish tartibi;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga  
yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har  
bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi  
sifatida ko‘rib chiqilishini e’lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat  
buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish  
uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi  
mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib  
aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish  
tartib-taomilining shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi  
bo‘lgan shartnomaga loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash  
bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda  
tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan  
sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo‘yicha xarid qilish  
hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.  
Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati  
kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko‘rsatilgan  
axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa  
o‘zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o‘zgartirishga  
yo‘l qo‘yilmaydi.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi. Tanlash  
ishtirokchilarining takliflari e'londa va tanlash bo‘yicha xarid qilish  
hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e'londa

ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

Elektron shaklda tanlash o‘tkazish chog‘ida tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi obyekti bo‘lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo‘lishi mumkin.

Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riliği uchun javobgar bo‘ladi.

Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko‘rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

## **2. Tanlovni o‘tkazish tartibi**

Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo‘lsa, tanlash o‘tkazilmagan deb hisoblanadi. Bunda davlat buyurtmachisi qonunchilik talablariga muvofiq yangi tanlash o‘tkazishi yoxud elektron do‘kon yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

E'londa tanlash o‘tkaziladigan vaqt sifatida ko‘rsatilgan vaqtida tanlash komissiyasi tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid

komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o‘tkazishda ishtirokchilarning boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lgan narx bo‘yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan

kamida ikkita taklif olingan bo‘lsa, tanlash o‘tkazilgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o‘tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan oshishi mumkin emas.

Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Summasi bir shartnomaga bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan (budget buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridagi summadan ko‘p bo‘lmasligi va bir moliya yilida bir budget buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak. Bunda g‘olib davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so‘rash yo‘li bilan aniqlanadi. Rasmiy lashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo‘srimcha kelishuvlar to‘g‘risidagi axborot ular rasmiy lashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Tanlash g‘olibini aniqlash. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko‘ra xarid komissiyasi tanlash g‘olibini aniqlaydi va tanlash o‘tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida

e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

Bayonnomda davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak.

Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

Tanlash natijalarini rasmiylashtirish. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda

zaxiradagi g‘olib g‘olib tomonidan taklif etilgan narx bo‘yicha (bundan zaxiradagi g‘olib taklif etgan narx g‘olib

tomonidan taklif etilgan narxdan past bo‘lgan hollar mustasno) shartnama tuzadi yoki shartnama tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlanmagan bo‘lsa yoki zaxiradagi g‘olib shartnama tuzishni rad etgan bo‘lsa, davlat buyurtmachisi qonunchilik talablariga muvofiq yangi tanlash o‘tkazishi yoxud elektron do‘kon yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Xarid jarayonida buyurtmachi ekspertizadan o‘tkazish uchun qanday hujjatlarni tayyorlashi lozim?
2. Tanlov hujjatlari qanday qismlardan iborat bo’ladi?
3. Ekspertizada tekshiriladigan va tahlil qilinadigan asosiy masalalar nimalardan iborat?
4. Elektron ravishda tanlovni o‘tkazish tartibi qanday?

## **8- BOB. TENDER ORQALI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH**

### **1.Tender tushunchasi.**

### **2.Tender orqali davlat xaridlarini amalga oshirish.**

**Tayanch so’z va iboralar:** tender - tender savdolari - ochiq tender - yopiq tender - ikki bosqichli tender - tender komissiyasi - tenderni tashkil etishda buyurtmachining funksiyalari – tender xujjatlari.

### **1.Tender tushunchasi**

Tender - davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra davlat xaridlari to‘g‘risidagi sharhnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budget buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Davlat xaridini tender o‘tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Sharhnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo‘yicha e’lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Agar majlisda xarid komissiyasi a'zolari umumiylar soning kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak. Tender vositasidagi davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko'ra uning veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'ltonni va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarni joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon faqat tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiylar xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'n ikki ish kuni va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quyidagi axborotni o'z ichiga olishi kerak:

tenderni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi; tender o'tkaziladigan joyning manzili;  
tender ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

takliflar berish muddati tugaydigan sana va

vaqt; tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon qonunchilikka zid bo'lмаган boshqa axborotni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portalı orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish bilan bir vaqtida davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi

kerak:

tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

shartnomalarini bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to'lov tartibi haqidagi axborot;

tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to'g'risidagi talab;

tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

tender ishtirokchilariga tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi;

tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi

mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomili shartlariga ko‘ra alohida- alohida aniqlanadi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo‘lgan shartnomalar loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o‘n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa o‘zgartishlar kiritiladi. Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tender ishtirokchisi davlat buyurtmachisiga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Mazkur so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar ushbu so‘rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo‘lsa, tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o‘zgartirmasligi kerak.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

Davlat buyurtmachisi tuzilgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo'shimcha kelishuvlarning xarid qilish hujjatlariga muvofiqligi va haqiqiyligi uchun javobgar bo'ladi.

#### Tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi

Tender ishtirokchilarining takliflari e'londa va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

Elektron shaklda tender o'tkazish chog'ida tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi obyekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliqi uchun javobgar bo'ladi.

Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqlidir.

Tenderda ishtirok etish uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtida tender ishtirokchilaridan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tender ishtirokchilarining takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini ayni o'sha shartlarda hamda

tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart. Tovarga (ishga, xizmatga) doir baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarur bo'lganda, xarid komissiyasi asoslarni ko'rsatgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

Tender ishtirokchisi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o‘zgartishlar kiritishga haqli.

### **Tender orqali davlat xaridlarini amalga oshirish.**

Tender ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.

Agar taklif qonunchilikning va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi ushbu Qonunda belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tender ishtirokchisining taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, shuningdek tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

E’londa tender o‘tkazish vaqtida ko‘rsatilgan vaqtida xarid komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Agar takliflar solingan konvertlar belgilangan vaqtida ochilmagan bo‘lsa, davlat

buyurtmachisi tender ishtirokchilariga ushbu holat yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish bergen holda, takliflar solingan konvertlar ochiladigan vaqt haqida xabarnoma yuborilishini va davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilishini ta’minlaydi. Bunda takliflar solingan konvertlar ochiladigan dastlabki belgilangan vaqt va keyingi vaqt oralig‘idagi muddat besh ish kunidan oshmasligi kerak.

Tender takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni vaqtida davlat buyurtmachisi tomonidan videoyoziuv amalga oshiriladi hamda konvertlarni ochish jarayonida ishtirokchilarning taqdim etgan barcha hujjatlari va tijorat taklifining narxi o‘qib eshittiriladi, bundan tender elektron shaklda o‘tkaziladigan hollar mustasno.

Tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi

axborotning ishonchsz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tenderda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tender g'olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.

Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismini baholash amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnomma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichini baholash yakunlari ko'rsatiladi.

Tenderning ikkinchi bosqichi tenderning birinchi bosqichidan o'tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ochiladi va baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo'yicha qarori bayonnomma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning ikkinchi bosqichi g'olibi aniqlanadi. Tenderda ishtirokchilarning narxi boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Tender ishtirokchisining vakolatlari vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida ishtirok etishga haqli.

Takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha:

birinchi bosqichda — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa;

ikkinchi bosqichda — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) texnik xususiyatlaridan kelib chiqib, tender bir bosqichda o'tkazilishi mumkin. Bunda davlat buyurtmachisi bu haqda tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatishi kerak. Mazkur holatda tender taklifining texnik va narxga oid qismlarini ochish hamda baholash bir vaqtning o'zida amalga

oshiriladi.

Tender bir bosqichda o'tkazilganda, agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan ishtirokchi xarid komissiyasining qarori bilan zaxiradagi g'olib deb belgilanishi mumkin.

Agar tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tenderning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi g'olibni tenderning har bir predmeti bo'yicha aniqlaydi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;

takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

tender g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

Tender bosqichlarida takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining hozir bo'lgan barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma bayonnomasi

imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimida e'lon qilinadi.

Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan keyin davlat buyurtmachisiga tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

Davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi takliflarni qabul qilish tugaydigan paytga qadar ularni muhokama qilishga haqli emas.

Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni

bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lган hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, davlat buyurtmachisi yangi tender o'tkazadi.

Tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tender savdolarining mohiyatini tushuntiring.
2. Tender savdolarining qanday turlari mavjud?
3. Tender komissiyalarining funksiyalari nimalardan iborat?
4. Tender yakunlari bo'yicha shartnomalarni tuzish mexanizmi nimalardan iborat?
5. Tender yakunlari bo'yicha shartnomalarni ijro etish qanday tartibda amalga oshiriladi?

## **9- BOB. YAGONA ETKAZIB BERUVCHI BILAN AMALGA OSHIRILADIGAN DAVLAT XARIDLARI**

### **1. Yagona etkaxib beruvchi tushunchasi.**

### **2. Yagona etkazib beruvchidan davlat xaridi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar - yagona yetkazib beruvchilar - davlat buyurtmachisi - yagona yetkazib beruvchilar reyestri.

### **1. Yagona etkaxib beruvchi tushunchasi.**

Yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi;

favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

sud muhokamasida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridi;

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvalari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining

mazkur intellektual multak obyektlariga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

Davlat buyurtmachilari to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo‘lsa, ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Davlat buyurtmachisi qonunchilikda nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham ushbu Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo‘srimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

Vakolatli organ davlat xaridlari elektron tizimlarining va maxsus axborot portalining axborotlar bazalari o‘rtasida axborot almashish orqali Shartnomalarning yagona reyestrini yuritadi.

Shartnomalarning yagona reyestriga quyidagi hujjatlar va axborot kiritiladi:

davlat buyurtmachisining nomi;

moliyalashtirish manbasi;

ijrochini aniqlash usuli;

xarid qilish tartib-taomilining natijalari sarhisob qilinadigan sana va shartnoma tuzish asoslarini tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari;

shartnoma tuzilgan sana;

tovarning (ishning, xizmatning) nomi, shartnoma bahosi va uni

bajarish muddati, tovar (ish, xizmat) birligining narxi, u kelib chiqqan mamlakatning va ishlab chiqaruvchining nomi;

ijrochi soliq to‘lovchining nomi, firma nomi (agar mavjud bo‘lsa), joylashgan yeri (yuridik shaxs uchun — pochta manzili), familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa), yashash joyi (jismoniy shaxs uchun), ijrochining soliq to‘lovchining identifikasiya raqami yoki chet ellik shaxs uchun tegishli chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ijrochining soliq

to‘lovchining identifikasiya raqami analogi, benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi axborot, bundan tarixiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan va davlat muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o‘xshash fondlarni to‘ldirish uchun mo‘ljallangan madaniy qimmatliklarni, shu jumladan muzey ashyolarini va muzey kolleksiyalarini, shuningdek noyob va qimmatbaho nashrlarni, qo‘lyozmalarni, arxiv hujjatlarini (shu jumladan ularning ko‘chirma nusxalarini) yetkazib beruvchi bo‘lgan jismoniy shaxs to‘g‘risidagi axborot mustasno;

shartnomaning o‘zgartirilgan shartlari ko‘rsatilgan holda shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi axborot;

shartnomani ijro etish to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan shartnoma uchun haq to‘lash, shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishli tarzda bajarmaganlik munosabati bilan moliyaviy sanksiyalar (jarimalar, penyalar) hisoblanishi to‘g‘risidagi axborot;

bekor qilish sabablari va asoslari ko‘rsatilgan holda shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi axborot.

Shartnomalarning yagona reyestridagi axborot to‘lov undirilmagan holda tanishib chiqish uchun ochiqdir.

Shartnomalarning yagona reyestrini yuritish tartibi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

## **2. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi**

Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur

bo‘lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to‘g‘risidagi axborot u tuzilgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

bozorda muqobillari bo‘lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo‘lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

madaniy qimmatliklarni olish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan subyektlardan davlat xaridlari;

tabiiy monopoliya subyekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;

o‘z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ishlarga yoki ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo‘lishi.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro‘yxatidan iboratdir.

Qaysi shartnomalar to‘g‘risidagi axborot Shartnomalarning yagona reyestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘sha shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Davlat xaridlari jarayonida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

agar ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchi vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul

qilish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo‘lsa, ishtirokchining davlat xaridlarida ishtirok etishiga;

ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga, bundan ushbu Qonun 16-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

manfaatlar to‘qnashuviga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo‘lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta’sir o‘tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo‘yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo‘l qo‘ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga;

davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning matniga ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga;

narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishiga;

ishonchsiz yoki buzib ko‘rsatilgan axborotni taqdim etishga yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslangan usullarini chetlab o‘tish maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo‘lib tashlashga;

ishtirokchilarning sun’iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo‘yicha takliflar berishiga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda bajarishni rad etishiga;

davlat xaridi tarkibiga texnologik va funksional jihatdan o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kiritishga;

firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo‘lishiga; moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi to‘g‘risida

tasdiqlarga ega bo‘lmagan yoki ajratilgan mablag‘lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

## **10- BOB. XARID QILISH TARTIB- TAOMILLARINI MONITORING VA NAZORAT QILISH**

### **1. Davlat xaridlari sohasidagi monitoring va nazorat**

### **2. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati**

**Tayanch so'z va iboralar:** davlat xaridlari sohasidagi monitoring - davlat xaridlari ustidan nazorat – Davlat nazorat organlari – jamoatchilik nazorati – nazorat shakllari

Davlat xaridlari sohasidagi monitoring davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini, davlat xaridlarining ushbu Qonunda belgilangan maqsadlari, prinsiplari va cheklovleri amalga oshirilishini davlat xaridlarining o‘tkazilishi haqidagi axborotni to‘plash, umumlashtirish, tizimlashtirish va baholash orqali doimiy asosda kuzatish tizimidir.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat mazkur sohadagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Qonunchilikda belgilangan tartibda statistik va boshqa axborotni taqqoslash hamda tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan tekshirishlar davlat organlarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etishi ustidan nazorat qilishning asosiy shaklidir.

Davlat xaridlari sohasidagi monitoring va nazorat tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi davlat organlari o‘z tasarrufidagi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari bo‘yicha monitoring va nazorat o‘tkazishga haqlidir.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida qonunchilikda nazarda tutilmagan tekshirishlar o‘tkazilishiga va hisobot berish shakllarini talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonunshilikning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik

hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini quyidagilar o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;  
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi;  
O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;  
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi.  
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarini auditdan o‘tkazadi va audit natijalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga har yilning yakuni bo‘yicha kiritadigan hisobotida ko‘rsatadi, shuningdek ochiq axborot manbalariga joylashtiradi.

Davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatli davlat organlari ham o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

## **2.Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati**

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati davlat xaridlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ko‘maklashish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishlarining oldini olish va ularni aniqlash hamda davlat buyurtmachilarini, vakolatli davlat organlarini aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish vositasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi

fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari:

  davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tayyorlashga;

  xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish va shartnomalarni bajarishning borishi to‘g‘risida axborot taqdim etish haqidagi so‘rovlarni davlat buyurtmachilariga yuborishga;

  xarid qilish tartib-taomillari yuzasidan mustaqil monitoringni va davlat xaridlari samaradorligini baholashni, shu jumladan ularning ushbu Qonun talablariga muvofiqligini baholashni amalga oshirishga;

  tekshiruv tadbirlarini o‘tkazish tashabbusi bilan davlat organlariga murojaat qilishga;

  davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari elektron tizimi operatori, vakolatli organ, xarid komissiyalari va ularning a’zolari harakatlarida (harakatsizligida) qoidabuzarliklar aniqlangan hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga;

  qonunchilikka muvofiq sudga murojaat qilishga haqli.

Loyihaga doir faoliyat bo‘yicha davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili. Loyihaga doir faoliyat bo‘yicha amalga oshirilgan davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili tegishli vakolatli organ tomonidan o‘tkaziladi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari bilan davlat buyurtmachisining rahbari yoki loyihani boshqarish bo‘yicha davlat buyurtmachisi tomonidan tayinlangan vakil imzo qo‘ygan holda tanishib chiqadi.

Davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligi yuzasidan loyihadan keyingi monitoring loyiha bo‘yicha davlat xaridi tugallanganidan keyin uch yil ichida tegishli vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya. Vakolatli organ tomonidan shikoyatlarni adolatli, tezkor va samarali ko‘rib chiqish maqsadida doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya

tuziladi, uning tarkibi tegishli davlat organlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari va jamoatchilik vakillaridan iborat bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Vakolatli organ Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning ishchi organi bo‘lib, uning faoliyatini tashkil etadi.

Har bir ishtirokchi, shuningdek nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar davlat buyurtmachisining, xarid komissiyasining, uning a’zolarining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, agar bunday harakatlar (harakatsizlik) ishtirokchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan bo‘lsa, sud tartibida yoki ushbu bobda belgilangan tartibda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga shikoyat qilish huquqiga ega.

Shikoyatlarni berish va ko‘rib chiqish tartibi. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni qabul qilib olganda shikoyat kelib tushgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida shikoyat haqida davlat buyurtmachisini xabardor qiladi hamda xarid qilish tartib-taomilini o‘n ish kunigacha bo‘lgan umumiy muddatga to‘xtatib turadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida ko‘rib chiqadi, bundan ishtirokchi shikoyatni uning ishtirokisiz ko‘rib chiqishga rozilik bildirgan yoki uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan hollar mustasno.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyat olinganidan keyin yetti ish kuni ichida u bo‘yicha qaror chiqarishi va bu haqdagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirishi kerak.

Qabul qilingan qarorda oshkor etilishi ishtirokchining (ijrochining) tijoratga oid manfaati buzilishiga olib keladigan yoki insofli raqobatga xavf soladigan axborot bo‘lmasligi kerak, bundan Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya ushbu axborotni e’lon qilish to‘g‘risida qaror chiqargan hollar mustasno.

Ishtirokchining shikoyati asosli deb topilgan taqdirda, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya quyidagi choralarini ko‘rishi mumkin:

davlat buyurtmachisining qonunga xilof harakatlariga, qarorlariga yoki u tomonidan qonunga xilof tartib-taomillar bajarilishiga doir taqiq belgilash;

davlat buyurtmachisining qonunga xilof qarorlarini, shu jumladan davlat xaridlari sohasidagi hujjatlarning shartlarini buzadigan qarorlarini qisman yoki to‘liq bekor qilish;

xarid qilish tartib-taomillarini tugatish haqida qaror chiqarish;

ijrochini Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritish.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarorlari davlat xaridlarining barcha subyektlari tomonidan ijro etilishi shart.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya o‘z faoliyatini ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Ijrochi Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarori ustidan sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

## **11- BOB. DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH**

- 1. Davlat xaridi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish usullari**
- 2. Davlat xaridi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish**

**Tayanch so'z va iboralar:** korrupsiya - moliyaviy yo'qotish - miqdoriy yo'qotish - sifat yo'qotish - siyosiy yo'qotish - davlat xaridi tizimida korruptsiyaga qarshi kurash usullari - psixiologik usullar - texnik usullar - tartibga soluvchi jarayonlar - jazo chora-tadbirlari.

### **1.Davlat xaridi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish usullari**

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi.

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashi kerak.

Davlat xaridlarida korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalanilishini;

monitoring va nazorat o'tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o'tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to'g'risidagi ma'lumotlar axborotning ochiq manbalarida e'lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo‘lishi.

Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a’zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Qonunchilikda ko‘rsatilgan shaxslar:

xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlarining oldini olishi shart;

har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi kerak.

Mavjud bo‘lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar topgan, shaxslar bu haqda bevosita rahbarini hamda davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni ko‘rilgan choralar

to‘g‘risida xabardor qilishi shart. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni olgach, qonunchilikga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart.

## **2. Davlat xaridi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish**

Davlat xaridi tizimi sohasidagi korruptsiya uzoq davrlardan beri mavjud bo’lgan va milliy chegara bilmaydigan muammolardan biri hisoblanadi. Korruptsiyaga qarshi kurashga ko’plab tadqiqotlar

bag’ishlangan va dunyo mamlakatlari bo’ylab davlat va nodavlat dasturlari amalga oshirilmoqda, ammo ushbu tadbirlardan hali sezilarli natijalarga erishilayotgani yo’q.

Davlat xaridi tizimida korruptsiyaning mavjudligi faqatgina moliyaviy zarar bilan chegaralanmaydi. Davlat xaridini joylashtirish jarayonida mavjud korruptsiyadan davlat va jamiyat ko’radigan zararni shartli ravishda to’rt turga bo’lish mumkin:

1. Moliyaviy yo’qotish – shartnomalarni davlat va jamiyat uchun moliyaviy zararli shartlarda tuzish. Buni sotib olinayotgan tovarlar narxini amaldagi bozor bahosidan yuqori nar xlarda sotib olish, davlat shartnomalarida to’lovlarni kechiktirish emas, balki oldindan to’lovnini amalga oshirish shartlarini kiritish va boshqa ko’rinishlarda ko’rish mumkin.

2. Miqdoriy yo’qotish – etkazib berilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmini keragidan ortiq yoki kam miqdorda bo’lishi; tovarlar va xizmatlarni davlat ehtiyojlari uchun emas, balki mas’ul amaldorlarning shaxsiy maqsadlari uchun xarid etish va boshqalar.

3. Sifat yo’qotish – sifatsiz tovarlar etkazib berish va xizmatlar bajarish kabi zaruriy texnik talablarni buzgan holda shartnomalarni tuzish; kafolat muddati va kafoltat muddatidan so’ngi shartlarni

bajarilishining noqulay shartlari; bajariladian ishlar va xizmatlar sifatini tekshirish uchun etarli nazoratning talab etilmasligi va hakozolar.

4. Siyosiy yo'qotish – mamlakatda investitsion muhitning yomonlashuvi, fuqarolar tomonidan davlat va davlat tuzilmalariga bo'lган ishonchning yo'qolishi, mamlakat iqtisodiy-moliyaviy tizimining izdan chiqishi, erkin raqobat tamoyillarining buzilishi va boshqalar.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat xaridini tashkil etishda korruptsiyani butunlay yo'qotishga hali hech bir mamlakatda muvaffaq bo'linmagan, ammo bu holat korruptsiyaning mavjud darajasini pasaytirish uchun olib boriladigan chora-tadbirlarning samarasiz yoki natijasiz ekan degan fikrni bildirmaydi.

Xarid tizimi sohasidagi korruptsiyaga qarshi kurash davlat sektoridami yoki tijorat sektorida amalga oshiriladimi, unga kompleks yondoshuv bo'lishini talab etadi. Xalqaro amaliyotda mazkur muammo echimida o'z samarasini isbotlagan to'rtta yondoshuv mavjud:

- Psixiologik usullar
- Texnik usullar
- Tartibga soluvchi jarayonlar
- Jazo chora-tadbirlari.

Psixiologik usullar korruptsiyaning birlamchi sababi bo'lган - xizmatchining ish beruvchi (ushbu holatda davlat hisobidan, ya'ni butun fuqarolar mablag'lari) hisobidan noqonuniy boyishini oldini olishga ta'sir etish imkonini beradi. Psixiologik usullarga quyidagilar kiradi:

Vazifaga nomzodning anketa ma'lumotlarini, uning biografiyasi va oldingi ish joyidan tavsifnomani tekshirish. Ushbu usul oldingi ish joyidan korruption faoliyati yoki jinoyati uchun ishdan bo'shatilgan, sudlangan shaxslarni korruptsiya imkoniyati mavjud vazifalarga tayinlanishini oldini olishda keng qo'llaniladigan oddiy usuldir. Hozirda barcha davlat

organlarida vakant o'rinalar uchun nomzodlarni tekshirishda yuqoridagi kabi tekshiruvlar xodimlar bilan ishslash xizmati tomonidan amalga

oshiriladi.

Nomzodlarni ishga olishda maxsus chuqurlashtirilgan testdan o'tkazish (hattoki "yolg'onni aniqlaydigan detektorlar" - poligraf) dan ham foydaliniladi. Juda ko'plab mavjud maxsus testlar va kompyuter dasturlari ish beruvchiga nomzodning aniq psixiologik rasmini gavdalantirish, shuningdek, uning ish beruvchi hisobidan boylik ortirishga bo'lган potentsial intilish darajasini aniqlashiga imkon beradi. Ushbu turdagи psixiologik testlardan tijorat sektori korxonalari va harbiylashgan tuzilmalarda ham keng foydalaniladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ishga qabul qilishda poligraf ("yolg'onni aniqlaydigan detektorlar") dan foydalanish ko'pchilik hollarda insonning konstitutsion huquqlarini paymol etishi to'g'risidagi asosli qarshiliklarga ham sabab bo'ladi.

Xodimlarni vaqtı-vaqtı bilan sadoqatligini tekshirib turish, va bunda, provakatsion usullardan ham foydalanish tijorat sektorida keng tarqalgan. Aybdorlarni "ko'rgazma" holda fosh etish va jazolash yuqori samarali anti-korruptsion tadbirdan hisoblanadi. Bosim ostidagi psixiologik muhit va xodimlarning yuqori darajadagi ko'chishi, ushbu usulning qarama-qarshi ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim holatlarda, davlat xizmatida mazkur usuldan korruptsiyaga qarshi profilaktik tadbir sifatida emas, balki raqobatchi-amaldorni yo'q qilish uchun qo'llaniladigan "g'irrom" kurashda foydalaniladi.

Xodimlarning o'z-o'zini nazorat qilish tizimini tashkil etish (talabgor xabar etkazuvchilar). Ushbu usuldan yirik tijorat tuzilmalarida maxsus

tashkil etilgan usul sifatida keng foydalaniladi. Qanchalik noqulay bo'lishiga qaramasdan ushbu usul juda samarali hisoblanadi. Davlat sektorida har doim ham qo'llanvermaydi, ammo o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Ko'pchilik holatlarda davlat korxonalari tizimida talabgor xabar etkazuvchilar tizimi rasmiy reglamentga ega emas va u ayrim olingen rahbarlar uchun axbort manbai hisoblanadi.

Xodimlarning samarali motivatsiyasi nafaqat xaridni amalga

oshiruvchi amaldorlarni moliyaviy rag'batlantirishni bildiradi, balki u xodimni ish beruvchi bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish xohishini rag'batlantiruvchi, masalan tashkilotda o'z professional karerasini amalgalashirish kabi, maxsus dasturlardan tashkil topadi. Evropa mamlakatlarida, davlat xaridi uchun javobgar amaldor, maxsus kategoriyalı xodim sifatida boshqa kasbdoshlariga nisbatan yuqori pul mukofoti – vijdonan faoliyat yuritganligi uchun o'ziga xos tarzdagi mukofot oladilar.

Buyurtmani joylashtirish Komissiyasi a'zolarini doimiy rotatsiya qilish, amaldorlarni mol etkazib beruvchilar bilan til biriktirishlarini oldini oladi.

Korruptsiyaga befarq bo'lmaydigan korporativ etikani shakllantirish (kasbiy kodeks va qiziqishlar to'qnashuvini boshqarish kodeksini ishlab chiqish, maxsus o'quv dasturlarini amalgalashirish), xorijiy mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi kurash strategiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Har qanday yirik xalqaro kompaniyada etika kodeksi – har bir xodimning hayot tarzi va axloqini reglamenti hisoblanadi. Kodeksda xodimlarning axloqiy etikasi va qoidasi, qiziqishlar to'qnashuvi natijasida yuzaga

keladigan qarama-qarshiliklarni hal etish yo'llari o'z ifodasini topgan. Ba'zi holatlarda, etika kodeksi mehnat shartnomasining tarkibiy qismi hisoblanadi, unga amal qilmaslik xodimni ishdan bo'shatilishga olib kelishi ham mumkin. Xorijiy mamlakatlar davlat xizmati tizimida korruptsiyani oldini olishga qaratilgan etika kodekslaridan keng foydalilanadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, etika kodekslari tashkilotning barcha xodimlari uchun majburiy va doimiy trening dasturlari tashkil etilgandagina o'z funktsiyasini to'la bajaradi.

Texnik usullar bitim ishtirokchilarini bir-birlari bilan uchrashish imkoniyatini yo'qotib yoki korruptionerni qo'lga tushib qolish riskini oshiradi, sotib oluvchi bo'linmalar va sotuvchilar o'rtaida til biriktirishlarni oldini oladi va ushbu imkoniyatni sezilarli darajada pasaytiradi. Bunday usullar sirasiga:

Xarid bilan shug'ullanuvchi xodimning muzokoralar olib boruvchi

xonalarini nazorat tizimi va videokuzatuvi uskunalar bilan jihozlash. Ushbu tizimning analogi sifatida AQSh yo'l politsiyasida qo'llaniladigan antikorruptsion tizimni keltirish mumkin. Ya'ni unga ko'ra, yo'l politsiyasi xodimining qoidabuzar bilan munosabati, faqatgina, patrul xizmati mashinasida o'rnatilgan maxsus videokamera qarshisida amalga oshirilishi lozim.

Xizmat pochta yozishmalarini monitoringi. Tijorat sektori tuzilmalarida keng qo'llaniladi, va asosan, ushbu funksiya ichki xavfsizlik bo'linmasining vazifasiga kiradi. Ushbu usuldan davlat xizmatida

foydalanishning yuridik jihatdan qanchalik muvofiqligi bahsli mavzu bo'lib qolmoqda.

Zamonoviy informatsion texnologiyalardan foydalanish (elektron savdolar tizimi, internet-dukon va elektron savdo maydonlari) xaridni amalga oshiruvchi xodim va sotuvchini bevosita uchrashish imkoniyatini pasaytiradi, va ushbu usuldan ham davlat sektori, ham tijorat tuzilmalari keng foydalandilar. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra xaridni tashkil etishning bu turi hajmi unchalik katta emas va kichik hajmdagi xaridni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Mavjud tijorat yoki maxsus shakllantirilgan kataloglar asosida xaridni tashkil etish ham tijorat, ham davlat sektorida keng qo'llaniladi. Bunga yorqin misol sifatida barcha federal bo'linmalarni joriy ta'minot (material-texnik ta'minot) masalalarini hal qilish bilan shug'ullanuvchi AQShning Umumiy xizmatlar Devoni tajribasini keltirish mumkin. Devon doimiy tarzda turli xildagi tovarlar/xizmatlar uchun konkurs e'lon qilib turadi va uning natijalari (baholar, etkazib berish muddatlari va boshqa shartlar) maxsus kataloglarga kiritiladi. AQShdagi biror davlat bo'linmasi "standart" mahsulotni xarid etish zarur bo'lganda, Umumiy xizmatlar Devoni tomonidan jo'natilgan katalogdan zaruriy tovar/xizmatni topib, uni hech qanaqa ortiqcha jarayonlarsiz katalogda ko'rsatilgan shartlar asosida sotib oladilar.

Tartibga soluvchi usullarni qo'llash – korruptsiyani yuzaga kelish riskini pasaytirishga qaratilagan barcha rasmiy ichki qoida va jarayonlarni amal qilish orqali xaridni amalga oshirishni bildiradi. Ushbu holatda korruptsiyaga qarshi turuvchi chora-tadbirlar kompleksi ikki xil yo'nالishda amalga oshiriladi:

1. Davlat buyurtmasini joylashtirishning potentsial jihatdan korruptsiyani keltirib chiqaruvchi jarayonlarini tartibga soluvchi samarali qoidalar tizimini shakllantirish.
2. Ushbu qoidalarni amal qilishni nazorat etishning aniq mexanizmlarini shakllantirish. Davlat buyurtmasini joylashtirish jarayonlarida korruptsiyani yuzaga kelishi riskini pasaytiruvchi qoidalar tizimida mustaqil (dastlabki va sungi) nazoratni amalga oshirishga imkon beruvchi nazorat nuqtalarini (xarid jarayonlariga bevosita aloqador bo'lмаган bo'linmalar bilan oldindan kelishib olish va boshqalar) mujassamlashtirish lozim.

Jazo chora-tadbirlarini qo'llashdan maqsad davlat buyurtmasini joylashtirishga masu'l bo'lgan shaxslarning korruptsion faoliyatining "foydasiz" qilib qo'yadigan muhitni shakllantirish.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Davlat xaridini tashkil etishda korrupsiyaning qanday zararli oqibatlari mavjud?
2. Davlat xaridi jarayonlarida korrupsiyadan davlat va jamiyat ko'radigan moliyaviy zarar siyosiy zarardan qanday farqlanadi?
3. Korruptsiyaga qarshi kurashda qo'llaniladigan psixiologik usullar nima?
4. Korruptsiyaga qarshi qo'llaniladigan usullarning ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirib bering.

## **12- BOB. DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

### **1. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish**

### **2. Davlat xaridlari tizimidagi isloxoatlar**

**Tayanch so'z va iboralar:** davlat xaridi tizimi - davlat xaridi soxasini takomillashtirish - davlat xaridlari tizimidagi isloxoatlar

#### **1.Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish**

Mamlakatda davlat xaridlari sohasini takomillashtirish maqsadida 2021 yil 22 aprelda O'zbekiston Respublikasining O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilingan. Ushbu Qonunning amal qilishi:

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturida va boshqa davlat dasturlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan loyihalarni ro'yobga chiqarish chog'ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

davlat buyurtmachilarining xo'jalik faoliyatini yuritish chog'ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

O'zbekiston Respublikasining budget tizimi budgetlarining, shuningdek budget tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalarining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga;

agar donor mamlakatlarning, xalqaro tashkilotlarning, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlarining tartib-taomillarida yoki O'zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko'makni va boshqa tashqi beg'araz ko'makni taqdim etish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat

tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar doirasida taqdim etiladigan chet el grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari hamda O‘zbekiston Respublikasiga beriladigan chet el kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga. Bunda donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlar tomonidan, belgilangan tartib-taomillarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib- taomillardan qat’i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi;

agar moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordamini taqdim etish hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtirish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordami hisobidan hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etiladi. Bunda moliyaviy, gumanitar yoki xayriya ko‘makni hamda boshqa beg‘araz qaytarilmaydigan moliyalashtirishni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib-taomillardan qat’i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Davlat tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta’minlash va ichki tartibni saqlash uchun davlat xaridlari, davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovlariiga, O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

## **2.Davlat xaridlari tizimidagi isloxitlar**

Korporativ buyurtmachi va strategik ahmiyatga ega ho'jalik jamiyatlari va korhonalar tomonidan belgilangan haridlarni amalga oshirish tizimi takomillashgan:

- Ustavida davlat ulushi 50 fizdan ko'p bo'lgan hamda davlat korhonalarini va davlat ulushi 50 fizdan ko'p bo'lgan korhonalar ulushining yigindisi 50 foizdan ortiq bo'lgan jurist shahslar korporativ buyurtmachilar ro'yhatiga kiritildi.

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda korporativ buyurtmachilar ro'yhatini mahsus axborot portalida yuritish belgilandi.

- Tadbirkorlik subyektlariga imkoniyatlar, imkoniyatlar ochiqlik va holislikni ta'minlash maksadida strategist korxona ega ho'jalik jamiyatlari va korhonalarga ham Qonun talablari to'liq tatbiq etilish belgilandi.

Davlat buyurtmachisi va ishtirokchilarning mas'uliyatini yuqori darajali quyidagilar belgilandi:

1. Molia vazirligida o'qish tizimi orqali buyurtmachilarning xaridga masul hoimlarining kasbiy mahorati va malakasi oshirib boriladi.

2. Davlat xaridlari komissiyasining tarkibiga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda "O'zinjiniring" korxonasi mazhburiy foydalanish talabi bekor qilinib, buyurtmachining korxonadan tashkil topishi belgilandi.

Коррупциянинг олдини олиш ва ошкораликни таъминлаш бўйича чоралар белgilandi:



Коррупцияга қарши курашиш агентлиги давлат харидлари устидан назорат қиливчи органлар рўйхатига киритилди;

Харид қилиш тартиб-таомиллари иштирокчиси ва унинг аффилланган шахси бир савода иштирок этиши, харид комиссияси аъзосининг иштирокчilar билан аффилланганик ҳолатida овоз берishi cheklandi;

Ҳисоб палатаси давлат харидларини аудитдан ўтказishi ва натижаларини ҳар йили Олий Мажлис Қонунчilik палатasiga киритishi ҳамда очиқ ахборот манбаларида эълон қилиб борishi belgilandi.

Молия вазирлиги ва бошقا иштирокчilarga савдо натижалари, қонун бузилиш ҳолатлари ва таълилий маълумотларни очиқ ахборот манбаларида эълон қилиб бориш вазифаси юклatiлди.

Махсус ахборот портaliда давлат харidлariни режалаштириш, харид қилиш тартиб-таomilalrini amalga osiриш, shartnomaga tuzish, давлат харидlari monitoringini olib borishi va назорат қилиsh jaeraenlari tizimlashingdi.

Инсофзиз ижроочilarning ягона реестriga kiritilgan subъektlarning давлат харидlariida ishtirok etishining cheklashi muddati уч йилдан икки йилgacha kisqartirildi.

Давлат харидlari tizimini янада rivojlanтириш, соҳага тадbirkorlik subъektlarini keng jalb қилиш ҳамда очиқлик ва шаффоғлини таъminlaшга қaratilgan boşqa kúplab ўзgariшlar kiritildi.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi.

Davlat buyurtmachilarini davlat xaridlari amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashi kerak.

Davlat xaridlari korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog'ida xolisona mezonlardan foydalaniishini;

monitoring va nazorat o'tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o'tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to'g'risidagi ma'lumotlar axborotning ochiq manbalarida e'lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlari amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo'lishi.

Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning

natijasi bo‘lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar:

xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlarining oldini olishi shart;

har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi kerak.

Mavjud bo‘lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar topgan, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarini hamda davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni ko‘rilgan choralar to‘g‘risida xabardor qilishi shart. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni olgach, ushbu Qonunga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart.

## **13- BOB. DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI BOSHQARISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

- 1. Davlat xarid tizimi tashkil etish va boshqarishning AQSH tajribasi**
- 2. Evropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning davlat xarid tizimini boshqarish amaliyoti**

**Tayanch so’z va iboralar:** davlat xaridini tashkil qilishning AQSh tajribasi - Federal xarid siyosati boshqarmasi - Federal xarid agentliklari – FAR - Umumiylar Xizmatlar Boshqarmasi - Xarid siyosati Federal Boshqarmasi - Federal ehtiyojlar uchun xaridni amalga oshirish tartibi - Federal xaridning Markazlashgan axborot tizimi - Evropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning davlat xaridi tizimi.

### **1. Davlat xarid tizimi tashkil etish va boshqarishning AQSH tajribasi**

Davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini boshqarish sohasida O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat mablag’larini samarali boshqarish, shuningdek, xarid jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirish, kichik biznes va tadbirkorlik sub’eklarini ushbu sohaga kengroq jalgan etish kabi qator maqsadlarni ko’zlaydi.

Davlat va mahalliy organlar xaridining samarasi amaldagi qonunchilik, davlat xaridini tartibga soluvchi organlar faoliyatining samarasi hamda xaridni amalga oshiruvchi xodimlarning professionallik darajasi kabi omillarga bevosita bog’liq.

Davlat xaridini boshqarishning xorijiy tajribasi, xususan, AQSh, Avstraliya, Evropa Ittifoqi va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o’rganish hamda ularning ijobjiy tajribalarini mamlakatimiz davlat xaridi tizimini boshqarishning samarali mexanizmalarini joriy etishda qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridini tashkil etishda AQSh tajribasini, ushbu mamlakatda davlat xaridini davlat moliyasi tarkibidagi o’rnini tahlilidan boshlaymiz.

AQSh hukumati mudofaani ta'minlashga, ta'limga, shifoxonlar, yo'l qurilishi va boshqa umumjamiyat ehtiyojlarni moliyaviy ta'minlash uchun davlat xarajatlarni amalga oshiradi. AQShda shtatlar hukumati va mahalliy o'z- o'zini boshqarish organlari tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun federal hukumatga nisbatan ham ko'proq xarajatlarni amalga oshiradi.

Quyidagi 1-jadvalda AQShda davlat xarajatlarining taqsimlanishi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari ikki xil tartibda ajratilgan: birinchidan – xarajatlarni federal va shtatlar hamda o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida ajratib ko'rsatilgan; ikkinchidan – davlatning umumiylar xarajatlari hamda tovarlar va xizmatlar sotib olishga yo'naltirilgan qismi (ya'ni ijtimoiy to'lovlarni ajratgan holda) aks ettirilgan. Ijtimoiy to'lovlardan (transfertlar) – bu uni oluvchilarga tovarlar va xizmatlar taklif etilmasdan, to'lanadigan mablag'lardir.

**jadval AQSh hukumatining xarajatlari hamda tovarlar va xizmatlarning davlat xaridi (YaIMga nisbatan % da)**

	barcha darajadagi hukumat	federal	shtatlar, o'z-o'zini boshqarish organlari
jami xarajatlar	37,8	24,5	13,3
tovarlar va xizmatlar sotib olish	20,5	8,7	11,8

2006 yilda federal hukumat xarajatlari YaIMning 24,5 foizini tashkil etiganligiga qaramasdan, tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflangan mablag'lar hissasi YaIMning 9 foizi miqdorini tashkil etgan. Bu farq, federal hukumat xarajatlarining kichik qismi tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflanishi bilan izohlanadi. Federal xarajatlarning 2/3 qismini aholiga ijtimoiy to'lovlardan to'lash, shtatlar va o'z- o'zini boshqarish organlariga subsidiyalar ajratish tashkil etadi. Federal

hukumat ijtimoiy to'lovlari, o'z ichiga, ijtimoiy ta'minot va ishsizlik nafaqasini oladi. Tovarlar va xizmatlar xaridining katta qismi federal hukumat tomonidan amalga oshiriladi va ushbu xarajatlarning yirik ulushi (YaIMning 7 foizi) mudofaa ehtiyojlari uchun amalga oshiriladi. Shtatlar hukumatlari va o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tovar va xizmatlar xaridi, aksincha, ta'lim, yo'l qurilishi, shifoxonalar ta'minotiga sarflanadi. Umuman, davlat sektori mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning qariyb 20 foizini xarid qiladi.

AQShning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiyligi muvofiqlashtirish - Federal xarid siyosati boshqarmasi (Office of Federal procurement Policy) tomonidan amalga oshiriladi. Bu organ dastlab, Byudjetni boshqarish boshqarmasida maslahatchi organ sifatida 1974 yilda tashkil etilgan, 1988 yildan hukumatning doimiy faoliyat yurituvchi organi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Federal xarid agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan barcha xarid 1984 yilda ishlab chiqilgan davlat xaridini tartibga soluvchi qoidalar yig'indisi (Federal Acquisition Regulation, FAR1) bilan tartibga solinadi. Unda xaridni tashkil etishning barcha bosqichlari – xaridni rejalashtirish, davlat xaridini amalga oshirishni boshqarish va uni tugallashgacha bo'lgan barcha bosqichlar o'z aksini topgan. FAR dan ko'zlangan asosiy maqsad - davlat ehtiyoji uchun xaridni amalga oshiruvchi barcha federal agentliklar tomonidan yagona xarid siyosatini amalga oshirish va yagona xarid qoidalaridan foydalanishni ta'minlashdan iborat. FARning missiyasi esa, xaridni amalga oshirishga bo'lgan vaqt cheklanganligini inobatga olgan holda, davlat buyurtmachilarini eng optimal baho/sifat munosabatini ta'minlagan holda tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat.

FAR ga asosan AQShda davlat xaridiga buyurtmani joylashtirishda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- ochiq savdolar;
- ikki bosqichli savdolar;

- muzokorlar olib borish;
- xaridni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish.

Boshqa mamlakatlar amaliyotida uchramaydigan soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli shartnoma summasi katta bo'limganda (100 ming AQSh dollari miqdorigacha) va yiliga 5 mln AQSh dollaridan ortmaganda qo'llaniladi. Bunda sun'iy ravishda xarid hajmini pasaytirish (mayda qismlarga ajratish orqali) taqiqlanadi. Soddalashtirilgan usulga quyidagilar kiradi:

baho kotirovkalari so'rovnomasini;

juda kichik hajmdagi (2500 dollargacha ) xaridni amalga oshirishda Korporativ xarid plastik kartlaridan foydalanish;

xarid uchun buyurtma joylashtirish;

turlari ko'p bo'lgan mahsulotni doimiy sotib olishda namunaviy-me'yoriy shartnomalardan foydalanish (masalan – buyurtmachini avtoxo'jaligi uchun ehtiyyot qismlar sotib olish, yoki ofis uchun kontselyariya tovarlarini sotib olish) va boshqalar.

AQShda davlat buyurtmasini shakllantirish va joylashtirish ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

joriy faoliyatni ta'minlash uchun (moddiy-texnik ta'minot);

ma'lum davlat organini ish yo'nalishi bo'yicha xarid (avvalo ilmiy tadqiqot ishlari, kapital quylmalar).

AQSh xorijiy mamlakatlar orasida davlat xaridini axborot bilan ta'minlash sohasida eng boy tajribaga ega mamlakat hisoblanadi. AQShda davlat xaridini federal darajada tartibga solish bo'yicha dastlabki qonun

1972 yilda qabul qilingan. Ushbu qonunga muvofiq, davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish bo'yicha vakolat Moliya vazirligi va Mudofaa vazirligiga berilgan.

Umuman, AQShda davlat xaridi tizimi markazlashtirilmagan tarzda

tashkil etilgan. Hozirgi paytda federal organlar ehtiyojlari uchun xarajatni amalga oshirish Umumiyl Xizmatlar Boshqarmasi (UXB) – (General Services Adminstration) zimmasiga yuklatilgan. Vazirlik va idoralarning arizalariga asoslanib, UXB tender savdolarini tashkil etish orqali yirik hajmdagi ulgurji xaridni amalga oshiradi. Tovarlar UXBning yukxonalarida saqlanadi va buyurtmachilarga ulgurji baholar ustiga sezilarsiz ustama qo'shish bilan (UXBning faoliyat xarajatlarini qoplash maqsadida qo'shiladigan) qayta sotiladi. Buyurtmachilarga Umumiyl xizmatlar Boshqarmasi tomonidan markazlashgan holda sotib olinadigan 4 mln dan ortiq tovarlar xilma-xilligi taklif etiladi. Umumiyl xizmatlar adminstratsiyasi tomonidan bajariladigan yana bir muhim vazifa bu - xarid etish jarayoni xarajatlarini pasaytirishdan iboratdir. Masalan, Umumiyl xizmatlar adminstratsiyasi tomonidan xarid uchun sarflangan xarajatlar umumiyl xarajatlarning 2.07 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2005 yilda 1.75 foizga qisqargan.

Milliy mudofaa ehtiyojlari uchun xarid Mudofaa vazirligi – (Department of Defense) tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim ixtisoslashgan xarid turlari boshqa idoralar tomonidan ham amlga oshiriladi, masalan, Energitika sohasidagi tadqiqotlar va rivojlanish Agentligi – (Energy Research and Development Agency), Kosmik tadqiqotlar va Aeronavtika Milliy Boshqarmasi –(National Aeronautics and Space Administarion, NASA) va boshqalar.

Federal xarid bo'yicha monitoringni amalga oshirish Xarid siyosati Federal Boshqarmasi – (Office of Federal Procurement Policy) zimmasiga yuklatilgan, xarid siyosati sohasida idoralalararo muvofiqlashtirish esa, Federal xaridni tartibga soluvchi Kengash tomonidan amalga oshiriladi – (Federal Acquisition Regulatory Council).

AQShda davlat xaridini huquqiy asosini: Federal ehtiyojlar uchun xaridni amalga oshirish Tartibi (Federal Acquisition Regulations, FAR) va Mudofaa ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish Tartibi – Qo'shimchalar (Defense Federal Acquisition Regulations – Supplement, DFARS) kabi hujjatlar tashkil etadi. Ushbu hujjatlar xarid jarayoni tamoyil va bosqichlarini juda ham detallashgan tarzda ifodalaydi va

butun federal xaridning tizimini tartibga soladi.

Xarid sohasiga tegishli bo'lgan barcha qonunchilikni ikki kategoriya ajratish mumkin.

Birinchi kategoriya – umumfederal qonunchilik. Mazkur qonunlar davlat xaridini tashkil etish jarayonini tartibga soladi, federal darajadagi ijroiyligining organlar vakolatiga tegishli bo'lgan xaridning ayrim turlarini amalga oshirish bo'yicha yuridik me'yorlarni belgilaydi.

Ikkinci kategoriya – shartnomalar shakli va ularni amalga oshirish bo'yicha maxsus qonunchilik bo'lib, u xarid jarayonlarini axborot bilan ta'minlash va uning natijasini tahlilini amalga oshirishni tartibga soladi.

AQShda davlat xaridini tashkil etish, davlatning funksiya va vazifalariga amerikacha yondoshuvdan kelib chiqib, uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

- haqqoniylik asosida, ya'ni davlat buyurtmalari bo'yicha savdoda ishtirok etayotgan pudratchilar uchun bir xil raqobat muhitini shakllantirish;
- ochiqlik asosida va davlat buyurtmalarida korruptsiyaga qarshi kurashish;
- tejamkorlik va samaralik asosida, ya'ni tovar va xizmatlarni talab etilgan sifatda va arzon baholarda, xarid etish xarajatlarini minimallashtirishni ta'minlash.

AQShda davlat xaridi tizimi davlat, xo'jalik, ilmiy-texnik komplekslar bo'yicha 100 ga yaqin federal idoralarni o'z ichiga oladi. Ular har yili, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni markaziy boshqaruv federal organi, o'z idora markazlari va mamlakatning yirik shaharlarida joylashgan federal hukumatning 12 ta hududiy markazlari orqali, joylashtiradilar.

AQSh qonunchiligi, davlat xaridi bo'yicha axborot resurslarini shakllantirish va foydalanish uchun mas'ul bo'lgan organlar faoliyatini ham tartibga solib turadi. Axborot resurslarni ta'minlovchi yig'ish, qayta ishslash va xarid bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish, federal ehtiyojlar uchun xarid bo'yicha axborotlar tizimi bazasini boshqarish va

shartnomalarning federal ro'yxatini olib boruvchi organlarning funksiya va vakolatlari qonunchilik bo'yicha belgilab berilgan. Federal xaridlar bo'yicha Markaz davriy ravishda ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha Yo'riqnomalar chop etib turadi. Unda quyidagilar aks etadi:

- hisobot topshirgan va hisobot topshirmagan idoralarning to'liq ro'yxati ko'rsatiladi;
- har bir idora bo'yicha, ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha zaruriy yo'riqnomalar;
- tushuntirishlar (qanday ma'lumotlar zarur va qaysi davr oralig'ida ularni taqdim etish kerak).

Davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xaridning o'sib borayotgan roli etarli darajada aks ettrimaganligi sababali, 1994 yilda, AQSh qonunchiligi jiddiy taftish etildi. Taftish yakunlariga asosan, AQShda xaridni tartibga soluvchi yangi qonunchilik shakllantirildi va u axborot bilan ta'minlash tizimini zamonoviylashtirish va tizimda axborot resurslardan foydalanishni tashkil etishni takomillashtirilishiga olib keldi. Davlat xaridini tashkil etish jarayoni ham tahlil etildi (1994 yilda, bu sohani nazorat etuvchi qonun va qoidlar jami 889 tani tashkil etardi). Shundan sung, davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha vakolatli federal organlarga, davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirishning shakllari, xaridni turlari, usullarini tanlashda kengaytirilgan erkinliklar berildi.

Qonun kichik xaridlar uchun shartnoma tuzish jarayonini soddalashtiridi va elektron savdolarni amalga oshirishni parallel ravishda qo'llab-quvvatladи.

Yangi qonunchilikka asosan, xarid qiymati 100 ming dollardan past bo'lган savdolar uchun qog'ozli hujjatlar aylanmasi bekor qilindi. Bu juda ko'plab hattoki kichik hajmdagi savdolarda ham, mavjud bo'lган murakkab qoida va jarayonlarni amlga oshirishdan xalos qildi.

Bugungi kunda Amerikadagi har bir federal idora, shartnoma qiymati 25 ming dollardan yuqori bo'lган, keyingi 5 moliya yilidagi barcha nomaxfiy tusdagi shartnomalarni kompyuter ma'lumotlar bazasini shakllantirishi va saqlashi lozim. Ushbu ma'lumotlar barcha idoralar

tomonidan federal xaridning Markazlashgan axborot tizimiga jo'natiladi. Shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishda, federal idoralar, hujjatlarning standartlashgan shakllari va ma'lumotlarning unifikatsiyalashgan formatidan foydalanadilar. Taqdim etiladigan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda, federal idoralar, qiymati 5 mln dollar va undan yuqori bo'lgan subshartnomalarni ham identifikatsiyalashgan elektron shakliga ega bo'lishlari shart.

Federal xaridning axborotlar tizimi, federal idoralar tomonidan har yili tuziladigan jami qiymati 200 mlrd dollarni tashkil etadigan (qiymati 25 ming dollardan yuqori bo'lgan 400-500 shartnomalar hamda kichikroq qiymatdagi 17 mln dan ortiq) shartnomalarning hisob axboroti bilan ta'minlaydi. Federal xaridning Markazlashgan axborot tizimi davlat xaridi haqidagi jamlangan axborot manbai hisoblanadi.

Federal xaridning Markazlashgan axborot tizimi ma'lumotlaridan Prezidentga, Kongressga va AQSh byudjet boshqarmasiga taqdim etiladigan davriy hisobotlarni shakllantirishda foydalaniladi, shuningdek, ushbu ma'lumotlar federal idoralar, ishbilarmonlar va keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Ushbu ma'lumotlarga tayanib, Markazlashgan axborot tizimi yillik hisobotlarni tayyorlaydi va taqdim etadi. Individual iste'molchi talabiga asosan, pullik xizmat shaklida, hisobotlar taqdim etilishi mumkin. Zarur bo'lganda, Markazlashgan axborot tizimi mutaxassisi talab qilinadigan hisobot tarkibini ishlab chiqishda mijozga ko'maklashadi. Hujjatni tayyorlash muddati 5-7 ish kuni qilib belgilangan. Ma'lumotlar bankidan 1 yillik ma'lumotlarni qidirish bahosi, taxminan 400 dollar, va har bir qo'shimcha yildagi ma'lumotlar uchun 100 dollardan qo'shimcha haq talab etiladi. Maxsus hisobotlar, ro'yxatlar, iqtiboslar ham qog'ozli shaklda, ham magnit tashuvchilarda taqdim etiladi.

Maxsus hisobotni talab qilishda, quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi talab etiladi:

- tadqiqot o'tkazilishi talab etiladigan vaqt oralig'i (AQSh moliya yili 1 oktyabrdan 30 sentyabrgacha hisoblanadi);

- mijozning hisobotda olishi zarur bo’lgan ma’lumotlari (masalan, shartnomalar ijrochisining nomi, nomeri, shartnomalar shakli, summasi va boshqalar);
- mijozni axborotni taqdim etilishini hoxlaydigan tarkibiy tuzilishi (masalan, yillar bo'yicha bo'lingan holda, idoralar bo'yicha, ijro etuvchi nomi bo'yicha, murakkablashgan variantlarda).

Federal xaridni amalga oshirishda elektron savdolarni tatbiq etishdan ko'zlangan maqsad – bu, faqatgina buyurtmachilarining potentsial pudratchilar bilan bo'ladigan takroriy jarayonlarini avtomatlash-tirishgina emas, balki xarid jarayonlarini amalga oshirish xarajatlarini pasaytirish va ushbu operatsiyalarni amalga oshirish muddatlarini keskin qisqartirishdan iborat. AQShda federal xaridni elektron savdolar orqali amalga oshirish miqyosi, tijorat tuzilmalari o'rtaida amalga oshiriladigan bunday savdolar hajmiga nisbatan ancha past darajada. Elektron savdolar, asosan, qiymati

100 ming dollargacha bo'lgan shartnomalar uchun soddalashtirilgan jarayonlarda qo'llaniladi. Ushbu, AQShda davlat xaridini qattiq tartibga solib turilishi, va ayrim hollarda faqatgina qog'ozli savdolargina xarid shartlariga mos kelishi bilan izohlanadi.

Elektron savdolarni qo'llash uchun zaruriy sharoitlar bo'lib: internet- texnologiyalardan foydalananishning rivojlangan huquqiy bazasi; aloqa vositalari; axborot himoyasi, kampyuter tarmoqlarini xavfsizligini ta'minlovchi asosiy standartlarning mavjudligi hisoblanadi.

Axborot resurslari davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid jarayonini ochiqligini; xarid jarayonida tenglik; imzolangan shartnomalar haqida ma'lumot olish mumkinligi kabi yuqorida qayd etilgan tamoyillarni amal qilishini ta'minlaydi. Qonunchilik muvofiq, ushbu resurslardan ma'lumotlarni olish imkoniyati, ularni hukumatning yagona axborot portalida nashr etish orqali amalga oshiriladi. Shartnomalarning federal ro'yxati ham elektron shaklda internetda joylashtirilgan.

- AQSh federal xaridi Markazlashgan axborot tizimining asosiy yutuqlari;
- Kongressga, Prezident devoniga, federal idoralar va xususiy sektor

vakillariga davlat xaridi bo'yicha shartnomalar sohasidagi holat haqida juda tez va aniq ma'lumot olish imkoniyatini beradi;

- turli qiziquvchi tomonlarga federal xarid haqida: yillar bo'yicha, idoralar bo'yicha, shartnomalar buyicha va h.k. ma'lumotlar olishga imkon beradi;

Shuning bilan birga bu tizimning quyidagi kamchiliklarini kuzatish mumkin:

- ayrim olingan federal idoralar bo'yicha ma'lumotlarning to'liq taqdim eta olmasligi;
- ushbu ma'lumotlardan hukumat idoralari tomonidan ham, yoki aholi tomonidan unchalik ham faol tarzda foydalanmasligi;
- tizim bo'g'inlari o'rtasida axborotlarning etrali darajada mos kelmasligi va h.k.

## **2. Evropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning davlat xarid tizimini boshqarish amaliyoti**

Mazkur izlanishda Evropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning davlat xarid tizimini boshqarish amaliyotini tadqiq etamiz.

G'arb davlatlarning hukumatlari davlat xaridi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlarni birinchi bo'lib boshlashga undagan asosiy sabablar sifatida, ushbu davlatlar hukumatlarining o'z xalqi oldidagi majburiyatlarni bajarishga intilib, hukumatlarning davlat va kommunal xarajatlarining yuqori darajada amalga oshirishi, korruptsiya bo'yicha noxush hollarning tez-tez yuz berishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ishtirokchi mamlakatlarning ko'pligi, ulardagi davlat xaridi miqdorining turli darajada ekanligi, rivojlanish darjasи va davlat sektorining hajmi Evropa ittifoqida(EI) davlat xaridini tartibga solish bo'yicha qonunchilikni ishlab chiqishda maxsus yondoshuvni talab etdi. Bugungi kunda EI mamlakatlarida davlat xaridini tartibga solish, uning hajmidan va boshqa shartlardan kelib chiqib, uch darajada tartibga solinadi: milliy, EI qonunchiligi hamda xalqaro qonunchilik asosida.

EIda davlat xaridini xalqaro darajada tartibga soluvchi qonunchilik sirasiga avvalo, Xalqaro savdo tashkiloti (XST)ning “Hukumat xaridi to’g’risida”gi Kelishuvni ko’rsatib o’tish mumkin. EI darajasida tartibga solish esa, davlat ehtiylari uchun xaridni yagona shartlar asosida amalgalashishni ta’minlovchi qator huquqiy aktlar mavjud<sup>1</sup>. Shuni ta’kidlash joizki, 2004 yildan 2006 yilgacha bo’lgan davr, o’tish davri sanalib, bir paytda “eski” yo’riqnomalar bilan bir vaqtida uning o’rnini bosuvchi “yangi” yo’riqnomalar bilan parallel ravishda amal qildi. EIda davlat xaridini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish quyidagi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi<sup>2</sup>:

- odadta, tabiiy monopoliyalar sanaluvchi ayrim iqtisodiyot sektorlarini (suv ta’minoti, energetika, transport va pochta xizmatlari sohasi) davlat xaridi buyicha umumiy qonunchilikning amal qilish doirasidan chiqarish;
- yangicha biznesni yuritish va hisob shakllari: kontsessiya hamda xususiy va davlat sektori o’rtasidagi boshqa shakldagi hamkorlik;
- elektron xaridni tashkil etish.

EI davlat xaridini nafaqat davlat boshqaruvi organlari faoliyatini joriy ta’minoti, balki davlatning ijtimoiy siyosatini amalgalashish muhim qurol sifatida qaraydi. Xususan, EIining “Ijtimoiy siyosatni yuritishda davlat xarididan foydalanish to’g’risida” gi Kommyunikesida: “...davlat va jamoat ehtiyojlari uchun mahsulotlarni etkazib berish shartnomalarini tuzishda ijtimoiy maqsadlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak” deyiladi.

Ijtimoiy dasturlarni amalgalashish mavjud qounuchilik doirasida amalgalashish alohida qayd etilgan. Shuningdek, xaridni amalgalashish jarayonida ijtimoiy yondoshuvni ta’minlashda quyidagilar muhimdir<sup>3</sup>:

<sup>1</sup> Quyidagi to’rt EI direktivasi davlat xaridini tartibga soladi:

- 1992 yil 18 iyul “Jamoat xizmatlari bo’yicha shartnomalarni taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish haqida”gi 92/50/EES raqamli Evropa Kengashi deriktivasi;
- 1993 yil 14 iyun “Jamoat uchun mol utkazib berish bo’yicha shartnomalarni taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish haqida”gi 93/36/EES raqamli Evropa Kengashi deriktivasi;

- 1993 yil 14 iyun “Jamoat ishlari bo'yicha shartnomalarni taqdim etish jarayonini muvofiqlashtirish haqida”gi 93/37/EES raqamli Evropa Kengashi deriktivasi;

- 1993 yil 14 iyun “Suv, energetika, transport, telekommunikatsiya sohalari uchun xarid jarayonini muvofiqlashtirish haqida”gi 93/38/EES raqamli Evropa Kengashi deriktivasi.

<sup>2</sup> А. Храмкин. Международный опыт построения системы госзакупок. [http://www.epgz.ru/\\_goszakaz/\\_public](http://www.epgz.ru/_goszakaz/_public)

- ish sharoitlari talablarini o'z ichiga oluvchi shartnoma shartlarini ishlab chiqish;
- mol etkazib beruvchini to'g'ri tanlash;
- qonunchilik bo'yicha ijtimoiy sohaga to'g'ri kelmaydigan mol etkazib beruvchilarni mol etkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarish;
- mol etkazib beruvchilarni tanlashda qo'shimcha ijtimoiy mezonlardan foydalanish.

Yuqoridagi hujjat davlat buyurtmalarini joylashtirishda ekologik siyosatni ham amalga oshirishni nazarda tutadi, ya'ni zaruriy texnik-texnologik xususiyatlarni ishlab chiqish, xom-ashyo va materiallardan foydalanish, mos ravishda mol etkazib beruvchilarni tanlash, ekologik talablarni inobatga olgan holda eng yaxshi taklifni baholash uchun tavsifnomalar berish va hakazo.

EIga kiruvchi mamlakatlarda davlat xaridi hozirgacha milliy qonunchilik asosida davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ammo, bunda nafaqat xaridni tashkil etish bo'yicha milliy qonunchilik, balki Evropa hamkorligining qonunchiligi va tavsiyalariga ham katta e'tibor qaratiladi.

EI davlatlarida davlat xaridini tashkil etish bo'yicha yagona umummilliy qonun shakllantirilgan va uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

EI darajasida davlat xaridini tartibga solishda, ijtimoiy va ekologik barqarorlik printsipi bir tomonidan, raqobatbardoshlik va erkin savdo mezonlari ikkinchi tomonidan qarama-qarshilikka duch kelmoqda. Mahsulotlarni etkazib berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarishni tartibga soluvchi yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy me'yorlar asosida "diskriminatsiya qilmaslik" printsipi yotadi<sup>4</sup>. Ya'ni, EIga a'zo

---

<sup>3</sup> У.Бурханов. Государственные закупки. [http://el.tfi.uz/pdf/gos\\_zakup\\_ru.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf)

<sup>4</sup> Государственные закупки в странах ЕС на примере Италии и Великобритании. <http://www.portalzakupok.ru/library/168>

mamlakatlarning davlat xaridi tizimini boshqarishda ataylabdan ichki(milliy) manfaatlarni ustun qilmaslik g'oyasi ilgari suriladi. Shunday qilib, shartnomalar tuzishda asosiy mezon qilib yoki eng past baho, yoki nisbatan foydaliroq iqtisodiy taklif, ya'ni baho va sifat o'rtasidagi munosabat olinadi.

EIda xaridni tashkil etish shakllari, usullarini ishlab chiqishda, shuningdek, axborotlar ta'minoti tizimini shakllantirishda AQSh tajribasidan keng foydalanilgan. Davlat xaridini takomillashtirish masalalari bilan Evropada AQShdan ancha keyin shug'ullanisha boshlashgan, buning sababi - EIga kiruvchi davlatlarning qonunchilik tizimidagi turlichalik va yagona kelishuvga kelishning murakkabligi bilan izohlanadi. EI mamlakatlarida imzolangan shartnomalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi asosiy axborot resurlari, xarid taklifi haqida bo'lib u "EIning rasmiy jurnali" da chop etilishi zarur. Ushbu nashrning qog'ozli ko'rinishi 1998 yilda bekor etilgan bo'lib, endilikda rasmiy elektron ma'lumotlar bazasi "Kundalik elektron tender" deb yuritiladi. TEDning ma'lumotlar bazasini internetdan olish mumkin va u kompakt-disklarda ham mavjud. U har kuni 500-750 tacha yangi e'lonlar bilan to'ldirilib, yangilanib boriladi va o'zida imzolangan shartnomalar haqida ma'lumotlarni ham saqlaydi. Shartnomalar va mol etkazib beruvchilar haqida yanada to'liqroq ma'lumotlar mamlakatlarning milliy axborot tizimlarida mavjud, bundan tashqari, davlat xaridi ishtirokchilariga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi 200 dan ortiq axborot markazlari ham faoliyat yuritadilar<sup>5</sup>.

EI mamlakatlarida xarid faoliyatini tashkil etishning ikkita modeli ustunlik qiladi: markazlashmagan va markazlashgan.

Ikkala usul ham barcha rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilib kelinadi. Masalan, Angliyada bu vazifalar Davlat g'aznachiligining zimmasiga yuklatilgan.

---

<sup>5</sup> <http://europa.eur.int>

EIda ikkala modelning bir vaqtida qo'llanilishi ko'proq samarali ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, xaridni umumiy boshqarish (me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish, rejalashtirish, nazorat va muvofiqlashtirish) faoliyati Moliya yoki Iqtisodiyot vazirligi tomonidan byudjetni shakllantrishda amalga oshiriladi, xarid esa maxsus xarid tuzilmalari tomonidan tashkil etiladi. Angliyada aynan shu tizim mavjud bo'lib, asosiy muvofiqlashtiruvchi organ – G'aznachilikdan tashqari ham, sohaga ixtisoslashgan xarid xizmatlari bor (masalan, National Health Service Supplies – sog'liqni saqlash milliy tizimi uchun xarid xizmati). Xaridni tashkil etish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tovarlar va xizmatlarni yirik hajmda xarid etishning eng samarali shakli bu ochiq tanlovlardan (tender) o'tkazishdir.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar davlat xaridini tashkil etish asosida tender savdolari turadi. BMT va Xalqaro Savdo tashkiloti kabilar o'z a'zolariga ushbu turda xaridni amalga oshirishni tavsiya etadilar. Xalqaro savdo bo'yicha BMTning Komissiyasi (YuNSITRAL) davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha asos va namuna bo'lishi mumkin bo'lган “Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida namunaviy qonun”ni taklif etdi<sup>6</sup>. XST mamlakatlarda xaridni tashkil etish bo'yicha talablar, a'zo mamlakatlar bilan ko'p tomonli shartnomalarda o'z aksini topgan. EI mamlakatlarining xarid faoliyati EIning deriktivalari bilan tartibga solinadi.

Evropa xarid tizimini boshqarish tamoyillari 1-rasmida aks ettirilgan. Mazkur tamoyillar juda ko'pchilik mamlakatlarning qonunchiligi asoslarini tashkil etadi va xalqaro hujjatlarda, jumladan, XSTning davlat xaridi bo'yicha ko'ptomonlama shartnomalarida ham ushbu tamoyillarga amal qilish qattiq belgilab qo'yilgan.

Davlat xaridini tashkil etishda ishlatiladigan xaridning ochiq va yopiq bir hamda ikki bosqichli tanlovlari, xaridning yagona manbasidan baholarni so'rash usulidan tashqari, ba'zi mamlakatlarda keng qo'llaniladigan taklif so'rovnomasini va raqobatli muzokaralar usullari ham mavjud. Taklif so'rovnomalari eng kamida uchta mol etkazib beruvchiga jo'natiladi. Buyurtmachi (sotib oluvchi tashkilot) takliflarni baholash mezonlarini, uning nisbiy mohiyati va baholashda qanday qo'llanilishini belgilaydi. Ushbu mezonlar mol etkazib beruvchining boshqaruv va texnik talablarga javob berishi bo'yicha, taqdim etilgan taklif orqali ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkinligi nuqtai nazaridan, shuningdek, taklif etilayotgan

baho, ekspluatatsiya, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini inobatga olgan holda tuziladi. Bunday hollarda so'rovnama yuborish, muzokoralar olib borish, yoki buyurtmachi, taqdim etilgan taklifni qayta ko'rib chiqishga ruxsat berishi mumkin. Muzokoralar sir saqlanish sharti bilan olib boriladi va unda ishtirok etish imkoniyati, takliflari rad etilmagan barcha talabgorlarga beriladi. Shundan sung, buyurtmachi mol etkazib beruvchilar oxirgi takliflarini taqdim etishi lozim bo'lган muddatni belgilaydi va taqdim etilgan eng yaxshi taklif qabul qilinadi.

EIning ayrim mamlakatlarda davlat xaridini tashkil etishda milliy mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga 5-10 % miqdorida imtiyozlar taqdim etiladi. Ayrim hollarda bunday imtiyozlar ancha yuqori ham bo'lishi mumkin, masalan, Vengriyada bu ko'rsatkich ma'lum vaqt oralig'ida 20 %ni tashkil etgan. Agar qiyoslaydigan bo'lsak, bizning Respublikamizda ham tender savdolari bo'yicha talabgorlar taklifini baholashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga baho imtiyozlari taqdim etilgan: "...agar tenderda xorijiy etkazib beruvchilar bilan birga mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari ishtirok etsa, bu korxonalarga tovarlar va xizmatlar davlat xaridi... tender savdolarida ishtirok etganda 20 foizgacha miqdorda narx imtiyozlari beriladi"<sup>7</sup>.

Ayrim mamlakatlarda davlat buyurtmasining ma'lum qismi, alohida olingan mol etkazib beruvchilar uchun, xususan, kichik biznes vakillari uchun saqlab qolinadi. Hottoki bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yirik buyurtmalar, atayin mayda bo'laklarga bo'lib joylashtirilishi ham mumkin. Davlat xaridi uchun xorijiy mol etkazib beruvchilar uchun o'rnatilgan maxsus taqiqlar bilan birga, ancha ko'zga ko'rinxaymaydigan turdag'i taqiqlar –

<sup>6</sup> <http://www.cnews.ru/reviews/free/gov2005/part8/europe.shtml>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qaroriga ilova qilingan "Xom- ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida nizom"ga maxsus X-I bo'lim kiritilgan bo'lib, ushbu bo'limning 55-punktida mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida g'olibni aniqlashda baho imtiyozlarini taqdim etish shartlari keltirilgan

bojxona poshlinalari va notarif cheklovlari (standartlar, guvohnomalar, litsenziyalar va h.k.), ayrim hollarda to'g'ridan-to'g'ri takiqlar o'rnatiladi. Bu amaliyat - xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda, XSTning faoliyati natijasida sekin-asta kamaymoqda, ammo undan tez orada butkul voz kechishning iloji yo'q.

Ko'plab mutaxassislarning fikricha, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish bo'yicha Germaniya tajribasini o'rganish<sup>8</sup>, EIning boshqa mamlakatlari tajribasiga nisbatan ancha qiziqarlidir. Germaniya EIning a'zosi sifatida, davlat xaridi sohasidagi evropa qonunchiligiga so'zsiz amal qilishi shart. Aks holda, Evropa Komissiyasi tomonidan ma'muriy choralar qo'llanilishi yoki Evropa sudida jazoga tortilishi mumkin. Germaniya o'zining milliy qonunchiligini EIning davlat xaridi bo'yicha qonunchiligiga ancha muvoffaqiyatli tarzda moslashtirib olgan. Chunki, raqobat muhitini shakllantirish va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, davlat mablag'laridan oqilona foydalanishga olib keladi.

Germaniyada davlat xaridini mavjud nazorat tizimi, EI talablariga javob beradi, va shuning bilan birga ayrim o'ziga xoslikka ega. Uning nazorat doirasiga, EI tomonidan aniqlik kiritilgan va davlat buyurtmачisiga tenglashtirilgan barcha tashkilotlar kiramilar. Shunday qilib, bir qator xususiy sektor vakillari davlat buyurtmachi maqomiga tenglashtirilgan.

Nazorat tizimi ikkita: apellyatsiya (mustaqil tashkilot ko'rinishida) va sud (sud organi ko'rinishida) instantsiyani o'zi ichiga oladi. Davlat xaridini joylashtirish bo'yicha qilingan qarorlarni sudda ko'rib chiqish imkoniyati, bu sohadagi muvoffaqiyatli yangiliklardan hisoblanadi. Qonunchilikka binoan, bu ikki instantsiya buyurtmachi ustidan shikoyatni tezlashtirilgan tarzda ko'rib chiqadilar va investitsiya jarayonlarini sekinlashuviga jiddiy salbiy ta'sir etmaydi.

---

<sup>8</sup> У.Бурханов. Государственные закупки. [http://el.tfi.uz/pdf/gos\\_zakup\\_ru.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf)

Germaniyada davlat xaridini tashkil etish markazlashmagan tarzda tashkil etilgan. Federal, hududiy va milliy hokimiyat organlari, shuningdek, jamiyat manfaatlari uchun faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillari, mavjud qonunchilik asosida va o'z majburiyatlarini inobatga olgan holda buyurtmalarni joylashtiradilar. Bu erda hamon, davlat buyurtmalarini joylashtirishning ajratilgan tizimi amal qiladi: EIning mos keluvchi deriktivalari asosida yuqori va pastki o'lchovlar (pul ko'rinishida) mavjud. Shuningdek, buyurtmachi faoliyati ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqishda turli xildagi tartibdan foydalaniadi.

Davlat xaridi tizimni takomillashtirish ishlari Federal Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat xaridi jarayoni ishtirokchilari o'rtasida fikrlarning doimiy va mahsuldor almashinuvini yo'lga qo'yilgan bo'lib, mavjud me'yoriy aklarni tushunish, unga tuzatishlar kiritish va yangi takliflar ishlab chiqish domiy tarzda malga oshiriladi.

Bundan tashqari, Germaniyada ekspertlar va olimlardan tashkil topgan "Davlat buyurtmasi Forumi" jamoat tashkiloti faoliyat yuritadi va ushbu forum doirasida doimiy fikrlar almashinuvi, mamlakat ichkarisida va tashqarisida davlat xaridi sohasida yuzaga kelayotgan yangi ko'rinishlarga munosabat shakllanriladi. Shuningdek, forum har yili davlat xaridi bo'yicha eng yaxshi ilmiy ish uchun mukofot taqdim etadi.

Buyurtmachilarni qonunni "ijodiy" tarzda tushunishi va qonun doirasidan tashqaridagi faoliyat bilan shug'ullanishlari, yoki ayrim potentsial pudratchilarni buyurtmachi xodimlarini "sotib olishi" (korruptsiya) bilan g'irrom raqobat usullaridan foydalanishi, Germaniyada juda kam uchraydigan holat.

Shu sababli, davlat tashkilotlarida davlat buyurtmasini joylashtirish bilan shug'ullanish uchun mustaqil shaxslarni (ushbu shaxslarni ishdan bo'shatish imkoniyati yo'qligidan) tayinlash amaliyoti mavjud. Bu shaxslarning faoliyati yuqori turuvchi nazorat organi Hisob palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday qilib, evropa davlat xaridi tizimini boshqarish ancha ilg'or tajribaga ega, shuning bilan bir vaqtida, tizimda mavjud ayrim kamchilik qarshi kurashish va muammolar echimini topish bo'yicha davlat hamda jamoat hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Evropa hududida ichki inegratsiya jarayonlarining kuchayib borishi bilan, davlat xaridini boshqarish mexanizmlari tobora unifikatsiyalashib bormoqda va bu evropa hududida ushbu tizimni tartibga soluvchi yagona qonunga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

Asosiy faoliyat maqsadi dunyoning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning ma'lum sohalarini rivojlantirish hisoblanadigan yirik notijorat tashkilotlar – Xalqaro moliya institutlarining (XMI) jamiyat mablag'lari hisobidan xaridni amalga oshirish tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. XMIIlari yirik miqdordagi mablag'larni to'playdi (badallik yig'imi sifatida ishtirokchilardan olingan, shuningdek, tijorat asosida kredit taqdim etish orqali to'plangan) va yirik tijorat hamda notijorat tusdagi loyihalarni amalga oshiradi.

Loyihalar XMIIlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilar ekan, ushbu mablag'lardan foydalanish hamda xaridni amalga oshirish tartibi XMI tomonidan o'rnatiladi. XMIIlari tomonidan kredit resruslarini taqdim etish shartnomalaridan ushbu qoida amal qiladi. Chunki, bunday shartnomalar xalqaro maqomga ega, davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirishda milliy qoidalalar emas, balki XMI qoidalari amal qiladi.

Eng mashhur XMIIlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- Jahon banki (JB), o'z ichiga Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot bankini (XRTB), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasini (XRA) va boshqa qator tuzilmalarni o'z ichiga oladi;
- Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB);
- Osiyo qit'asida ro'yxatdan o'tgan mol etkazib beruvchilar uchun Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki (OTTB);
- turli xil fondlar (Know-How Foundation, USAID) va boshqa tashkilotlar. Har qanday loyihani amalga oshirishda erkin bozordan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlarga ehtiyoj seziladi. Masalan, ofis ishini tashkil etish uchun kompyuterga, shahar suv ta'minoti tizimini

modernizatsiya qilish uchun yangi nasoslarga, qurilish ishida injener xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan tovarlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish qoidalari “XTTA qarzlari va XRA kreditlari hisobidan xaridni amalga oshirish bo'yicha Qo'llanma” keltirilgan va quyidagi usullarni nzarda tutadi:

- xalqaro tanlov savdosi;
- milliy tanlov savdosi;
- xalqaro yopiq savdolar;
- yagona manbadan xarid qilish.

Qo'llanmada har bir jarayonni amalga oshirish muddatlari aniq ko'rsatilgan, har qanday vaziyatlarda harakatlar ketma-ketligi, tomonlarning huquq va majburiyatları, shuningdek xaridning murakkab turi sifatida, xalqaro tanlov savdolarini amalga oshirish aniq yoritilgan.

Xaridni amalga oshirish uchun XMilar tomonidan qo'llaniladigan usullar, shuningdek, loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoidalari, jarayonlar ko'p jihatdan yuqorida ko'rib o'tilgan YuNSITRALning “Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida”gi namunaviy qonuni bilan o'xshashlikka ega. Shunday qilib, xalqaro hamjamiyat etkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun jamiyat mablag'larini, soliq to'lovchilar mablag'lari bo'ladimi (rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridi uchun) yoki XMilar ishtirokchilarining mablag'larini (Jahon banki, ETTB loyihalari uchun xarid), uni sarflashda shartnoma tuzishning tanlov texnologiyalaridan foydalanmoqda.

Umuman, raqobat asosida tashkil etilgan xarid sotib olingan tovarlar va xizmatlarga xarajatlarni qisqartirishga, xarajatlarni amalga oshirish samarasini ta'minlaydi va davlat mablag'lari hisobidan buyurtmalarni joylashtirishda korruptsiya darajasini tushirishga yordam beradi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. AQShda davlat xarajatlarining byudjetlar o'rtasida taqsimlanish darajasi qanday?
2. AQShning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirish organlari kimlar?
3. AQShda boshqa mamlakatlar amaliyotida uchramaydigan xaridni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli qanday?
4. AQShda xarid sohasiga tegishli bo'lgan barcha qonunchilik qanday kategoriyalarga ajratiladi va ularni tushuntirib bering.
5. AQShda davlat xaridini amalga oshirishda qanday elektron texnologiyalar qo'llaniladi?
6. Evropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning davlat xaridi tizimining o'ziga xos xususiyatlari niamlardan iborat?

## GLOSSARIY

<b>davlat buyurtmachisi</b>	– davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs
<b>davlat xaridi</b>	– tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish
<b>davlat xaridlarining sub'ektlari</b>	– davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, maxsus axborot portali operatori va ekspert
<b>davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomasi</b>	– davlat xaridlari bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o'rtasida tuziladigan bitim
<b>maxsus axborot portali</b>	– operatorning davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'londalar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishini va ko'rinishini, shuningdek elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayti va maxsus elektron platformasi

**maxsus axborot portaliga operatori**

– davlat xaridlarining sub'ektlariga xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish, maxsus axborot portaliga e'lolnarni, buyurtmanomalarini hamda davlat xaridlari va ularning yakunlari to'g'risidagi boshqa axborotni joylashtirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi maxsus vakolatli yuridik shaxs

**xarid qilish tartib-taomili**

– davlat xaridi bo'yicha xatti-harakatlar majmui

**ekspert**

– xulosa berish uchun maxsus bilimlarga ega bo'lgan jismoniy shaxs

**elektron davlat xaridlari**

– elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auktsion kabi maxsus axborot portalining dasturiy-texnik kompleksi orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish usullari

**e'lon**

– davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, ushbu xaridlarning talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga joylashtiriladigan bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi axborot

**agent**

– birjada akkreditatsiya tartib-qoidasidan o'tgan hamda buyurtmachilar va etkazib beruvchilarga topshiriq shartnomasi asosida ularning elektron auktsion savdolarda qatnashishini ta'minlashga doir professional xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxs

**buyurtmachi**

– byudjet tizimi byudjetlarining, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg’armasining va O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasining mablag’lari hisobiga tadbirdorlik sub’ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qiluvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag’lari oluvchilar;

– investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tender va tanlov savdolarini o’tkazish orqali tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshiradigan tashkilot;

– lektron auktsion savdolarda tovar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

– buyurtmachining elektron tizimda joylashtiriladigan ochiq ofertasi

– lotlar ro’yxati, ular bo’yicha ushbu Nizomga muvofiq bo’lib o’tmagan deb e’tirof etilgan savdolar natijalari

– byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazarat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o’rtasidagi o’zaro munosabatlar jarayoni

**buyurtmachining  
buyurtmanomasi****bo’lib o’tmagan  
bitimlar reestri****byudjet jarayoni**

**byudjet jarayoni  
ishtirokchilari**

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar

**byudjet  
mablag'larini  
taqsimlovchi**

– o'z tasarrufida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag' oladigan tashkilotlarga ega bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi

- byudjet sohasidagi vakolatlar**
- byudjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet munosabatlari sohasidagi vakolatlari
- byudjet ssudasi**
- qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag'lari
- byudjet so'rovi**
- kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat
  - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan manbalar hisobidan byudjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lar
- byudjet tizimi**
- byudjetlari**
- O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari
  - O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'lari
  - O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va

## **vaqtinchalik kassa uzilishi**

## **vaqtinchalik xarajatlar smetasi**

## **davlat xaridlari**

## **davlat xaridlari va korporativ xaridlар masalalari bo'yicha bahslar va kelishmovchiliklarni**

shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan mablag'lar

– joriy moliya yilining muayyan davrida byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi

– byudjet tashkilotining yoki byudjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi

– byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari;

– davlat xaridlari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilarining raqobati va ochiqlikni ta'minlash asosida amalga oshiriladigan xaridlar;

– davlat xaridlari amalga oshirilishi to'g'risidagi e'lonlar maxsus axborot portalida ushbu xaridlar amalga oshirilishidan kamida o'n kun oldin, biroq joriy moliya yilining 10 dekabridan kechiktirmasdan joylashtiriladi;

– raqobat va ochiqlik cheklangan holdagi davlat xaridlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

– savdolarni o'tkazish va ularning natijalarini rasmiylashtirish bilan bog'liq masalalarni sudgacha ko'rib chiqish uchun birja tomonidan tuzilgan organ

**ko'rib chiqish  
bo'yicha maxsus  
komissiya**

**davlat ehtiyojlari  
uchun tovarlar  
etkazib berish**

– davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish bo'yicha davlat kontrakti asosida, shuningdek uning asosida tuziladigan davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadigan, davlat byudjeti va moliyalashning byudjetdan tashqari manbalari hisobiga ta'minlanadigan, O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlari davlat ehtiyojlari deyiladi.

– davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish borasidagi munosabatlarga Fuqarolik Kodeksining 437-456-moddalarining qoidalari ham tatbiq etiladi. Ushbu Kodeks bilan tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatan davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berishni tartibga soladigan boshqa qonun hujjatlari tatbiq etiladi.

**davlat ehtiyojlari  
uchun tovarlar  
etkazib berish  
yuzasidan davlat  
kontrakti**

– davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish yuzasidan davlat kontrakti bo'yicha mahsulot etkazib beruvchi (ijrochi) davlat buyurtmachisiga yoki uning ko'rsatmasiga binoan mahsulot etkazib berish shartnomasi asosida boshqa shaxsga shartlashilgan muddatda tovarlar etkazib berishni, davlat buyurtmachisi esa, etkazib berilgan tovarlar haqi belgilangan muddatda to'laniшини ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

**yopiq tenderlar**

- ishtirokchilar soni cheklangan tender;
- yopiq tenderlar istisno hollarda Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'yan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi.

**yoppasiga nazorat**

- tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish

**etkazib beruvchi**

- taklif etilgan shartlarda o'zining elektron auktsion savdolarda qatnashish va savdolarda g'olib chiqqan taqdirda tovar (ishlar, xizmatlar)ni etkazib berish niyatini bildirgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt, shu jumladan xususiy tadbirkor);

- tanlov asosida tanlab olingan qurilish industriyasi korxonasi, tayyorlovchi zavod yoki moddiy-texnika resurslarini, shu jumladan loyihani amalga oshirishda foydalilaniladigan texnologiya va muhandislik asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi va (yoki) etkazib beruvchi jismoniy shaxs.

- aktsept, elektron tizimda joylashtiriladigan ofertaning etkazib beruvchi tomonidan to'liq va so'zsiz qabul qilinishi

**etkazib beruvchining buyurtmanomasi**

- byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi

**jamlanma xarajatlar smetasi**

- moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat

**joriy nazorat**

**korporativ xaridlar**

– davlat ulushi ustun bo’lgan tabiiy monopoliyalar sub’ektlari, korxonalar va tashkilotlar elektron xaridlari bo’yicha Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan ro’yxat bo’yicha ustav fondidagi davlat ulushi 50 foizdan ko’p bo’lgan tabiiy monopoliyalar sub’ektlari, davlat unitar korxonalari va xo’jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari

**qurilishlarning aniq ro’yxati**

– ob’ektlar ro’yxatini, shuningdek ulardan foydalanish yo’nalishlari bo’yicha ishlar va xarajatlar hajmini o’z ichiga oluvchi har yili buyurtmachilar tomonidan ajratilgan limitlar doirasida tuziladigan moliyaviy hujjat

**qurilishning titul ro’yxati**

– qurilishning butun davriga kapital qo’yilmalar hajmini va uni sarflash yo’nalishlarini ko’rsatgan, uning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarini aks ettirgan holda har bir ob’ekt bo’yicha tuziladigan moliyaviy hujjat

**qurilish-pudrat tashkilotlari reestri**

– qurilish-pudrat tashkilotlarining ixtisoslashuvga, tashkiliy tuzilmaga va bajariladigan qurilish-montaj ishlari xususiyatiga muvofiq doimiy ishlaydigan qurilish-ishlab chiqarish xodimlari bilan butlanganligi, ularda ishlab chiqarish fondlari (o’z ishlab chiqarish bazasi, qurilish texnikasi, mashinalar va mexanizmlar, shuningdek kichik mexanizatsiya vositalari) mavjudligi hisobga olingan holda ular to’g’risidagi har yili yangilanadigan yagona elektron ma’lumotlar bazasi

- loyiha** – tarmoq tuzilmalarini rivojlantirish va joylashtirish sxemasi, shuningdek muhandislik izlanishlari va korxonalar, inshootlarni joylashtirishning variantli ishlanmalari, uning loyiha quvvati va boshqa texnik ko'rsatkichlari asosida tuzilgan mintaqalar bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish sxemasi tarkibida bajarilgan zarur hisob-kitoblar bilan birgalikda materiallar turkumi. Kapital qurilish loyihasida quyidagi asosiy masalalar hal etiladi: xom ashyo va tayyor mahsulotning transport oqimlari sxemasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi, iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari bilan aloqalar, ishlab chiqarishning hisob-kitobi va uni tashkil etish, ishlab chiqarishni kadrlar bilan ta'minlash, qurilish uchun ajratilgan er uchastkasidan oqilona foydalananish, binolar va inshootlarning hajmli-rejallashtirish, arxitektura va konstruktiv echimlari, atrof muhit muhofazasi, izdan chiqqan erlarni tiklash (rekultivatsiya) va er qa'ri muhofazasi, quvvatlarni o'zlashtirish
- loyihalovchi** – loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun tanlov asosida tanlab olingan tashkilot
- mablag' bilan ta'minlovchi organ** – byudjetdan ajratmalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari (Davlat byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan mintaqalarda -G'aznachilik va uning

- hududiy bo'linmalari);
- davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari bo'yicha (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan tashqari) jamg'armalarning tegishli tasarrufchilari
  - moliyaviy nazorat ob'ektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo'yicha faoliyatini nazorat qilish
